Klasterdan foydalaniladigan darslarda o'quvchilar teng sonli kichik guruhlariga ajratilib, ularga o'quv topshirig'ining didaktik maqsadi va bajarilish tartibi tushuntirilgandan so'ng, ular ajratilgan vaqt ichida fikrlarini jamlab, o'zlari tuzgan klasterni himoya qilib, fikrlarini dalillashga imkon yaratilib, eng yaxshi va oson tuzilgan klaster aniqlanadi, g'oliblar rag'batlantiriladi.

Geografiya darslarida lokal darajada qo'llaniladigan texnologiyalardan biri Venn diagrammasi bo'lib, uni ishlab chiqqan ingliz olimi Djonn Venn nomi bilan yuritiladi. Venn diagrammasi o'rganilayotgan mavzuning tushuncha va jarayonlarni tahlil qilish va taqqoslashni talab etadi. O'zbekiston iqtisodiy – ijtimoiy geografiyasi kursining O'zbekiston milliy iqtisodiyotining tuzilishi mavzusida qishloq xo'jaligining mustaqillik yillarigacha bo'lgan davriga qadar muayyan vaqt taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladigan rivojlanishning ekstenziv yo'li, mustaqillikdan keyin esa intensiv xo'jalik yuritish yo'llarining o'xshash va farqli hamda samarali jihatlarini taqqoslashda foydalanish mumkin.

Venn diagrammasi- dars jarayonida ikki va uch jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish, yoki taqqoslash, yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. Bu usul o'quvchilarda tizimli fikrlash,

solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Geografiya ta'limi jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatining bu tarzda tashkil etilishi ularda ijodiy faoliyatni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida o'quvchilar tomonidan tushuncha va atamalarni mustahkam o'zlashtirishga zamin tayyorlash muhim o'rin tutadi, shu sababli har bir bob va mavzular mazmunidagi tushuncha va atamalarni "Atamalar zanjiri" tizimiga keltirishi kerak.

"Atamalar zanjiri" bu atamalar va ularning ta'riflari bo'lib, ulardan o'qituvchi o'tgan mavzuni yakunlash, yangi o'rganilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimlarini mustahkamlash maqsadida darsning bir qismida foydalanganligi sababli, lokal texnologiyalari guruhiga kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur texnologiyadan ta'lim tarbiya jarayonida foydalanishga bir necha usulda yondashish mumkin: o'quvchilar kichik guruhga ajratilib, guruh a'zolaridan kichik konsul'tant tayyorlanadi. Kichik konsul'tant unga berilgan topshiriqdagi atamalar asosida guruhning a'zolarini kartochka vositasida baholaydi. Bunda o'quvchilar aytilgan atamalarning izohini aytishni yoki izohga qarab atamani aniqlashi mumkin. Har bir to'g'ri javob uchun kartochka berilganligi sababli, kartochkalar soni ularning to'plagan balini belgilaydi. Keyingisi, o'quvchilar bob va mavzular mazmunidagi, tushuncha va atamalar ro'yhati beriladi. Ularning mazmuni va mohiyatiga ko'ra, o'zaro mantiqiy bog'langan zanjir klaster holiga keltirish talab etiladi. Masalan O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursining aholi mavzusini oladigan bo'lsak, aholi, tabiiy ko'payish, tug'ilish, o'lim darajalari, mexanik ko'payish, tarkibi, diniy tarkib, urbanizatsiya, mehnat resurslari, mehnat yoshi va x.k. ushbu yondashuv ko'p vaqtni talab etsada, samaradorligi yuqori bo'lib, o'quvchilarni mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini, rivojlantirish imkonini beradi. "Atamalar zanjiri" dan o'tgan mavzuni yakunlash qismida foydalanilganda o'quvchilarning kichik guruh a'zolaridan og'zaki holda mazmuni va mohiyatiga ko'ra o'zaro bog'liq holda yangi atama qo'shishi talab etiladi. Guruhning birinchi ishtirokchisi bitta atama bilan boshlagan o'yinyakunida guruh a'zolari soniga teng atamalar zanjiri vujudga keladi. Ikkinchi bosqichda mazkur atamalarga ta'rif berish va ularni izohlash talab etiladi.

Geografiya darslarida tezkor o'yinlar va o'yin mashqlaridan ham foydalanish muxim o'rin tutadi. Geografik diktant o'quvchilarning o'zlashtirgan nazariy bilimlarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llashga imkon yaratib, o'quvchilar bilimidagi tipik xatoliklarni aniqlash imkonini beradi. Shu sababli, barcha iqtisodiy-ijtimoiy, tabiiy geografiya kurslarida o'quvchilarning bilimini nazorat qilish va baholashda geografik diktantlardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursining "Aholi va inson omili" - Aholi manzillari" mavzusida quyidagi biologik diktantdan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu geografik diktantning birinchi turida o'quvchilardan nuqtalar o'rniga mos keluvchi tushunchalarni qo'yish tavsiya etiladi.

Lokal darajadagi pedagogik texnologiyalar darsning muayyan qismida o'quvchilarning bilish faoliyatini

faollashtirib, ta'lim samaradorligini orttirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning bu faoliyatga kirishishi va muayyan ko'nikma va malakalarni egallagandan so'ng, pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslarni o'tkazishi, ya'ni xususiy metodik darajada qo'llashi mumkin.

O'zbekiston sanoati" mavzusini o'qitishda foydalaniladigan xususiy metodik darajadagi texnologiyalar. Xususiy metodik darajada geografiya fanining barcha kurslarini o'qitish jarayonining maqsadi va vazifalarini amalga oshirish maqsadida geografiya ta'limi mazmunini o'quvchilar ongiga singdirishda foydalaniladigan o'qitish metodlari, vositalari va shakllarining majmuasi tushuniladi. Xususiy metodik darajada darsning barcha bosqichlari pedagogik texnologiya talablari asosida tashkil etiladi. Bunda o'qituvchi o'rganiladigan mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlaridan kelib chiqqan holda qaysi texnologiyadan foydalanish, mazkur texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, darsda o'quvchilarning bilishi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimini nazorat qilish va baholash yo'llarini belgilashi lozim. O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasini o'qitishda xususiy metodik darajadagi pedagogik texnologiyalardan didaktik o'yin texnologiyalari, modulli ta'lim texnologiyalari, hamkorlikdagi o'qitish texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Geografiya ta'limi jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayonini o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtiriladi. Didaktik o'yinli darslar orqali quyidagi funktsiyalar amalga oshiriladi: Ta'lim-tarbiya berish; shaxsni rivojlantirish; o'quvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish; bilimlarni nazorat va tahlil qilish; kasblar bilan tanishtirish va kasbga yo'naltirish; o'quvchilarning muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish. Dars jarayonida bu funktsiyalar majmua holda amalga oshiriladi, lekin quyida o'rganiladigan didaktik o'yin turlarida qaysidir funktsiya ustunlik qiladi. Masalan, konferentsiya darslaridao'quvchini rivojlantirish ustunlik qiladi, qolgan funktsiyalar unga ilova bo'ladi, o'yin mashqlarda bilimlarni nazorat va tahlil qilish ustunlik qiladi, qolgan funktsiyalar uni to'ldiradi. Geografiya o'qituvchisi didaktik o'yinli darslarni o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga amal qilishi maqsadga muvofiq: Didaktik o'yinli darslar dasturda qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi; jamiyatdagi muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilinishi; odob-axloq meyyoriga mos kelishi; o'yin tuzilishi mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi; darsda didaktik printsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishish.

Didaktik o'yinli darslarning muvaffaqiyati, avvalo o'quvchilarning mazkur o'yinlarga puxta va qizg'in tayyorgarlik ko'rishlariga, o'qituvchining mazkur faoliyatni tashkil etish va mohirlik bilan boshqarishiga bog'liq.



O'quvchilarning didaktik o'yinga tayyorgarlik ko'rish faoliyati quyidagilarni o'z ichiga olishi: didaktik o'yin maqsadi, vazifasi, olib borilish tartibi, qoidalari bilan tanishish; muammoli vaziyatni anglash; muammoli vaziyatdan chiqishning eng samarali yo'llarini topish; har bir o'quvchi o'zi bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni anglashi, o'qituvchidan kerakli yo'riqnomaga va ko'rsatmalar olish; o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam va o'zaro nazorat vujudga kelishi lozim.

Didaktik o'yinli darslarni o'quvchilarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga ko'ra syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferentsiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin. Didaktik o'yinli darslar ichida konferentsiya darslari muhim o'rin tutadi. Konferentsiya darslari o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda, ilmiy dunyoqarashni kengaytirishda, ularni qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirishda, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi konferentsiya darsini o'tishdan avval dars mavzusini, maqsadi va vazifalarini aniq belgilab olib shu mavzuga oid qo'shimcha ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlarni ko'zdan kechiradi. Mazkur dars o'tkazishdan 10 kun oldin dars mavzusi e'lon etilib, unga tayyorgarlik ko'rish uchun adabiyotlar tavsiya qilinadi. e'lon qilingan didaktik o'yinli darsda "olimlar" rolini tanlash, mavzuni har tomonlama yoritish, har bir o'quvchining qiziqishi va qobiliyatiga yarasha ma'ruza tayyorlash o'quvchilarning ihtiyorida bo'ladi. Darsga tayyorgarlik davrida o'qituvchi tomonidan ijobiy rag'batlantirishning ustunligi va muvaffaqiyatga yo'llovchi o'qituvchining muloqot madaniyati, o'zaro yordami o'quvchilarning darsga qizg'in tayyorgarlik ko'rishning muhim omili sanaladi.

Zamon bilan hamnafas ishlayotgan har bir o'qituvchi o'quvchilardagi bu istak va orzularni amalga oshirish uchun ta'lim jarayonida shunga o'xshash o'yinlarni o'z vaqtida o'tkazishi o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish va bilish faoliyatini faollashtirishga zamin tayyorlaydi.

#### **Geografiyani o'qitishda turli didaktik o'yinlar.**

Geografiya ta'limida faol metodlarni qo'llash darsdagi mutloq shakllarini o'zgarishiga olib keladi. O'qituvchi materialni bayon qilishda, o'quvchilar bilimlarini tekshirishda ayniqsa faol metoddan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan dars-suhbat, dars tadqiqot, dars-konferentsiya, har xil vazifaviy o'yinlar o'quvchilarni darsga tayyorlashda, darsning ayrim bosqichlarida o'qituvchining o'rni bosa olish imkoniyatlarini yara-

tadi. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari quyidagi hulosalarni bayon qilish imkonini beradi: Pedagogik kuzatishlarimiz va mavjud adabiyotlar tahlili "O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fani o'quvchilarning mamlakatimiz iqtisodiy salohiyati to'g'risidagi bilim va tushunchalarni shakllantirish dolzarb ta'limiy muammolardan biri ekanligini ko'rsatdi. Zero ma'naviy barkamol avlod bugungi kunda keng tafakkur egasi bo'lmog'i kerak. Bundan tashqari darslarni "O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" o'quv fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali tashkil etish nafaqat fanlararo balki mavzulararo bog'liqlikni ham ta'minlashda muhim o'rin egallaydi hamda o'quvchilarni bilish faoliyatini faollashtiradi. O'quvchilarga faqat dastur asosida belgilangan mavzular to'g'risidagi bilimlarni beribgina qolmasdan ularning dunyoqarashi va tafakkurini rivojlantirishga, jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganishga ham katta hissa qo'shadi. Bugungi kunda iqtisodiy-ijtimoiy geografiya fani jamiyatning rivojlanishida harakatlantiruvchi iqtisodiy, ma'naviy kuch ekanligini hech kim inkor eta olmas kerak. Shuning uchun ham kelajagi buyuk davlatni barpo etishga jazm qilgan avlod, birinchi navbatda O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani asoslarini chuqur anglashlari va uni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning tub asoslariga qoya olishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Geografiya ta'lim jarayonining muvaffaqiyati o'qituvchining ilmiy-metodik saviyasiga va pedagogik mahoratining yuqori darajada bo'lishi, zamon bilan hamnafasligi, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalariga bog'liq bo'ladi. O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasini o'qitishda, boshqa didaktik o'yinlar bilan bir qatorda o'yin mashqlardan o'z o'zida va samarali foydalanish maqsadga muvofiq. O'yin mashqlar uchun televidenie va matbuot orqali berib borilayotgan va o'quvchi yoshlarning eng qiziq mashg'ulotiga aylangan o'yinlarni andoza qilib olish mumkin. Bular jumlasiga "Zakovat", "Zinama-zina", "Imkon shou" kabilarni kiritish mumkin. Mazkur o'yinlarda o'quvchilar avvalo o'z kuchi va bilimlarini sinab ko'radilar va yana ularning aksariyati shu o'yinlar ishtirokchisi bo'lishni orzu qiladilar. Zamon bilan hamnafas ishlayotgan har bir o'qituvchi o'quvchilardagi bu istak va orzularni amalga oshirish uchun ta'lim jarayonida shunga o'xshash o'yinlarni o'z vaqtida o'tkazishi o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish va bilish faoliyatini faollashtirishga zamin tayyorlaydi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Герасимова Т.П. О новом подходе к методике обучения географии // География в школе. - 1989. №3. - с. 87-91
2. Жильцова О.А. Обучающие технологии в естественно - научном образовании школьников. - М.: Полиграф сервис, 2003.

## ABDULLA QAHHORNING “DAHSHAT” HIKOYASI TILI VA UNDAGI SINONIMLIK HODISASI

*Esirgapova Gulsanam G'oziboy qizi*

*Jizzax davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich magistranti,  
O'zbekiston, Jizzax*

*Surayyo Eshonqulova*

*Jizzax davlat pedagogika instituti Dotsenti,  
O'zbekiston, Jizzax*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasida qo'llanilgan sinonimlar va ularning tahlili, sinonimlik hodisasining vujudga kelishi, sinonimlik va variantdorlikning til talabi ekanligi va tilga xos xususiyatlari, matn sinonimiyasi keng yoritilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Qahhor, dahshat, sinonim, sinonimiya hodisasi, matn sinonimiyasi, uslubiy sinonimiya, badiiy matn.

Konstantin Stanislavskiyning “San’atdagi hayotim” kitobida L. Tolstoy haqida aytilgan bunday bir gap bor: “*Uning hayotligida biz “Tolstoy bilan bir zamonda yashash qanday baxt!” der edik. Yuragimiz g'am-g'ussaga to'lib toshganda, hayotda qiynalganda yoki kishilar ko'zimizga yirtqich bo'lib ko'ringanda “Yana Polyanada Tolstoy bor-ku!” degan fikr bilan o'zimizga tasalli berardik...*”. Xuddi shu kabi Abdulla Qahhor tirikligida o'zbek ziyolilarida ham shunday bir qanoat va tasalli bor edi – deydi Ibrohim Haqqul o'zining “*Abdulla Qahhor jasorati*” nomli essesinde. Abdulla Qahhor zamonaning eng kerakli so'zlarini o'z asarlari orqali o'quvchiga yetkazib bergan. Bu haqdagi fikrlarni adibning “O'tmishdan ertaklar” kitobining boshida O'tkir Hoshimov tomonidan yozilgan kirish qismida uchratish mumkin. “*Adib. Dramaturg. Ustoz.*” deya nomlangan kirish qismida yozadi: “*Abdulla Qahhorning yozuvchilik mahoratini belgilaydigan narsa faqat uning so'z qo'llash mahorati emas, u o'zining qahramonlarini tirik odamga aylantirgan. Kitob o'qiyotib u odamlarning aniq qiyofasini ko'rgandek, ovozini eshitgandek bo'lasiz*”. Ha, bunday mahorat hamma yozuvchida ham yo'q. A. Qahhor qahramonlari kuchli, sabrli, matonatli, mard va jasur... “Dahshat” hikoyasidagi Unsin aynan shunday obrazdir.

Badiiy matn tahlilida avvalo, asar nomlanishidan boshlab tahlil qilinadi. Odatda, asar voqealari peyzaj tasviri bilan boshlanadi. Bu o'quvchilarning o'zi o'qishga kirishayotgan asarining ruhiga kirishiga, uni tasavvur qilishiga va qahramonlarning ruhiy kechinmalarini anglab yetishiga yordam beradi. Yozuvchining hikoyalaridagi mavzularda ham, asarlarining o'zida ham tilshunoslik tahliliga doir barcha unsurlar mavjudligi bilan boshqa yozuvchilardan ajralib turadi. Yozuvchi asarlarida tilshunoslikning barcha sathlariga oid misollarni qiynalmasdan topishimiz mumkin. Ayniqsa, “Qahhorcha” qisqalik va lo'ndalik o'zbek tilining naqadar boy va mazmundor ekanligini ochib beruvchi jihat. Biz ushbu maqolamizda Abdulla Qahhor hikoyalaridagi sinonimlarning qo'llanilishi va ularning uslubiyatiga nazar tashlamoqchimiz. Sinonimlik hodisasini birgina “Dahshat” hikoyasi misolida yoritishga urindik. Hikoyaning nomlanishi aslida, asar mazmunini yorituvchi asosiy jihat deb hisoblasak, biz

tahlilga tortayotgan “Dahshat” hikoyasi mavzusidan boshlab sinonimlik til hodisasining tahliliga kirishamiz.

Sinonimlik hodisasi asar nomlanishidan boshlanib, asar ichida shartli ravishda davom ettiriladi. Shuning uchun yozuvchi ijodining mavzu ko'lami o'rganilayotganda uning asar tarkibidan ayri holda tahlil qilishning imkoni yo'q nazarimizda. Yuqoridagi hikoyasiga e'tibor qaratsak, “Dahshat” so'zining lug'aviy ma'nosi- (hayronlik, hayratda qolish) – nihoyat darajadagi qo'rqinch, vahima, xavf. Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasida ham qo'rqinchli tasvir vositalari sinonimik qatori keltirilib, ularni tadrijiy kuchaytirib boradi. “*Yaqin ikki kundan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g'uvillaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi.*” Bu sinonimik qatordagi neytral so'z- *dahshat*; matnning birliklari sifatida so'z va so'z birikmalarini mahorat bilan qo'llab, iboralarning serqirra ma'nolari bilan asarini bezaydi. Bir stimuly so'z atrofida turli semantik unsurlarini birlashtiradi. Bu stimuly shartli ravishda sinonimlik hosil qilgan tushunchalardan tarkib topadi. “Stimuly” so'zi assotsiativ tilshunoslikning birligi bo'lib, sinonimlik hodisasiga yaqin. Ya'ni “dominanta” atamasi “stimuly so'z” bilan o'xshashliklarga ega. Biz sinonimlik hodisasiga kengroq to'xtalib o'tsak, sinonimiyaning shu vaqtgacha aniq ilmiy ta'rifi yaratilmagan. Sinonimiyaning hozirgi asosiy va bosh masalalaridan biri *sinonim* tushunchasini ta'riflashdir. Sinonimlar deyarli barcha o'rinlarda “*shakl jihatdan har xil, ma'no jihatdan bir xil*” deya ta'riflanadi, ammo bu sinonimlar mohiyatini to'la ochib bera olmasligi bir qator ilmiy tadqiqotlarda aytib o'tilgan. Sinonimlar bir tushunchani ifodalaydigan, ammo ma'no nozikliklari bilan bir-biridan farq qiladigan so'zlardir. Dunyo tilshunosligida ham bir-biriga teng kelib qolgan so'zlar aynan sinonim sifatida qabul qilinmasligi ko'p kuzatiladi. Masalan, “Dahshat” hikoyasining o'zida bir qancha stimulyning ishtiroki ma'noning ta'sirchanligini oshiradi. Biz buni shartli sinonimlar deb ham qarasa bo'ladi. (*Dahshat, go'riston, shamol uvullaydi, bo'yra*) bular stimuly so'z sifatida “Dahshat” stimuly atrofida birlashgan. Aslida, “dahshat” deganda insonlarning ko'z

oldiga birinchi navbatda qabriston va insonning o'limi bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar keladi.

Bu kabi tahlil uchun Abdulla Qahhor asarlaridan ko'plab misollar keltirish bo'ladi. Abdulla Qahhor ijodidagi hikoyalarga berilgan nomlardan so'ng so'z birikmasi yoki epigraf qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin. Bu sinonimiya hodisasini namoyon bo'lishi (ma'noviy yaqinlik)ga turtki bo'lgan birliklarni qo'llash bilan aks ettirilgan. Masalan: "Yillar" (O'tdi umrim voh darig'...); "O'g'ri" (Otning o'limi itning bayrami.); "Bemor" (Osmon yiroq, yer qattiq)...Bu esa bir stimulyat atrofiga semalarning to'planishini keltirib chiqaradi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan olganimizda, "...bu shaklan teng kelmagan, sinonimlik hosil qila olmaydi" - degan e'tirozlar bo'lishi tabiiy. Ana endi sinonimlik hodisasiga olimlarimiz nuqtai nazari bilan qarash:

"Sinonimiya - shaklan har xil ammo, bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksemalar. Sinonim leksema orasidagi munosabat *sinonimiya* yoki *sinonimik munosabat* deb yuritiladi" - deydi R.Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M.Qurbonova, M. Abduzalova kabi mualliflar.

"Dahshat" hikoyasidagi kuzak shamolning tasvirida uning bir qancha uslubiy sinonimlari (*chiyillaydi, g'uvillaydi, vishillaydi, uf tortadi*) qo'llanilgan. Shamolning harakati uning tezlashishiga qarab yuqoriga o'sa boshlagan. Yana bir o'rinda shamolning harakati quyidagidek tasvirlanadi; (*shamol goh och bo'riday uvular, goh o'lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag'illar; qulog'i guvullayotgan shamolda...*)bu o'rinlardagi shamolning turli harakatlari turli sinonimlar orqali ifodalamoqda.

Sinonimlarning uslubiy vazifasiga to'xtalsak: *uvullar-* harakatning ovozga nisbatlanishi, ovozning kuchliligi; *pixillar-* ovozning kuchini ifodalashda ishtirok etib, oldingi sinonimidan ko'ra kuchsizroq; *vag'illar-* bu sinonim ham matn tarkibida bo'lib, ular alohida holda bir ma'noni bildirmaydi. Bir semaning sememalari bo'lib kela olmaydi. *Uvullar-* ko'proq bo'ri va itning ovoziga nisbatan ishlatiladigan so'z; til vositalaridan **metofora** qo'llanilgan, ovozning o'xshatilishi; *pixillar-* mushukka nisbatan ishlatiladi;

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyotimiz faxri. "Abdulla Qahhor ijodiy merosining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati" mavzusidagi ilmiy-adabiy anjuman materiallari. T.: 2007.
2. Lingvist (Ilmiy maqolalar to'plami). "Akademnashr". T.: 2011y.
3. Konstantin Stanislavskiy "San'atdagi hayotim"
4. Ibrohim Haqqul "Abdulla Qahhor jasorati" esse. T.: 2018
5. A.Qahhor. O'tmishdan ertaklar. "Sharq" nashriyoti. T.: 2014
6. "O'zbek tilining izohli lug'ati" T.: 1995y
7. R.Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M.Qurbonova, M. Abduzalova. Hozirgi o'zbek dabiyy tili. T.: 1996
8. Qahhor A. Anor. Hikoyalar to'plami. Badiiy adabiyot, T.: 2005.
9. D.E.Lutfullayeva. Assotsiativ tilshunoslik asoslari. T.: 2017.

*vag'illar-* parrandalar va suvning ham tovushini ifodalashga xizmat qiladi. Yozuvchi bunday sifatlarni keltirishidan maqsad ham uning turli sifatlarni aks ettirish bo'lib, bu badiiy niyat uslubiy sinonimlar orqali amalga oshirilgan. *Shartli sinonim* desak ham bo'ladigan ushbu sinonimlar matn tarkibidan ajralganda boshqa ma'noni anglatadi. Turli ma'no qirralari yozuvchi mahoratidan bir predmetning sifatini ifodalashga xizmat qildirilgan. Bu esa birgina matn doirasida. Aynan bitta yozuvchining bir necha sinonimlarni bir necha matnda yoki asarida keltirishi ularning bir xil vazifa bajarishi degani emas, faqatgina, bir matn uchun xos *sema* boshqa bir matnda o'sha leksema bilan, bir xil shaklda ifodalansa-da, turli uslub va bo'yoqlar, turli ma'no qirralari va turli ma'no tashuvchi vazifada keladi. Quyida matn haqida ham fikr yuritib o'tamiz va matndagi ma'no va matndan tashqaridagi ma'no, til birliklarining va til vositalarining turli o'rinlardagi vazifalari haqida ham to'xtalamiz.

Matn tarkibidagina ishtirok etgan so'zlarda sinonimlik hodisasi ko'p uchraydigan holat (*chiyillaydi, g'uvillaydi, vishillaydi, uf tortadi*). Bu matn tipi ya'ni matnda uning tashuvchi ma'nosi bilan bog'liq. Bizda tabiiy savol tug'iladi. *Matn o'zi nima?* Matn bu- butunlik. U o'zida asosiy g'oya tashuvchi birliklardan tarkib topadi. *Tilshunoslikda qanday birliklar bor?* degan savollar ustida munozaralar yuritiladi. Biz matnga ta'rif berganda, ikkita asosiy belgiga, bog'lanishlilik va yaxlitlik belgisiga asosiy e'tibor beramiz. Gaplar o'rtasida yuzaga kelgan munosabat til birliklarining vazifasi bilan bog'liq. Bunda matnni g'oyasi uchun xizmat qilayotgan til birligi qaysi sathda bo'lmasin u bir sath jihatidan tahlil qilinadi. Demak, biz *shartli snonim* deb hisoblagan sinonimlar ham matn tarkibidagina.

Xulosa qilib aytganda matn tarkibidagi sinonimlik hodisasini o'rganishda shu narsa muhimki, har qanday til birligi sathlardan qat'iy nazar matn tarkibida sinonimlik hosil qila olishi mumkin. Bu esa matniy sinonimlar deyiladi. Demak, olimlarimizning fikrlarini jamlaydigan bo'lsak, Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasida qo'llangan (biz tahliliga to'xtalgan) *birliklar* matn sinonimlari hisoblanar ekan.

## INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI

*Juraboyeva Gulmira Sherali qizi*

*Samarqand davlat chet tillar instituti 2-kurs talabasi,  
O'zbekiston, Samarqand*

*To'xtayeva Gulbahor*

*Samarqand davlat chet tillar instituti 2-kurs talabasi,  
O'zbekiston, Samarqand*

### ANNOTATSIYA

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodning ta'lim olishi, xorijiy tillarni o'rganishi, turli xil zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Yoshlarimiz bunday imkoniyatlardan unumli foydalangan holda bilim olib, xorijiy tillarni puxta o'rganib kelishmoqda. Hozirgi kunda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini mukammal o'rganish zamon talabiga aylanib bormoqda. Bu jarayon davlatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng qizg'in shiddat bilan boshlangan edi. Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov xorijiy tillarni o'rganish haqida quyidagi fikrlarni aytgan edilar: "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'ringa intilayotgan mamlakatlarimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir".

**Kalit so'zlar:** axborot texnologiyasi, zamonaviy texnika, innovatsion texnologiyalar, metodlar, an'anaviy dars, no-an'anaviy dars, tushuncha, ta'lim sifati, samaradorlik, tinglash tushunish, erkin fikrlash, o'yinlar, guruhlariga bo'linish.

Ushbu fikrlarning asosi ravishda muhtaram yurtboshimizning 2012-yil 10-dekabrda PQ 1875-sonli "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga muvofiq barcha ta'lim muassasalarida, jumladan, maktablarda ham chet tillarni o'qitishga, o'qitishga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Ushbu qaror chiqarilgandan so'ng, barcha ta'lim muassasalaridagi o'quv darsliklari xorijiy davlatlar darsliklaridan andoza olgan holda qaytadan yaratildi va nashr etildi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini boshlang'ich sinflardan jumladan, 1-sinfdan boshlab o'rgatish joriy etildi. Respublikamizda chet tili o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning umumiyevropa andozalari tavsiyanomlari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Har bir maktabda chet tillarni zamon talabiga mos bo'lgan axborot kommunikativ texnikalar asosida o'qitish uchun alohida maxsus xonalar ajratildi va ular zamonaviy texnologiyalar, misol uchun, lingafon, proyektor, sensorli televizor, kompyuter, magnitli doska va shu kabi jihozlar bilan jihozlandi.

Hozirgi paytda umumiy o'rta ta'lim maktablarda ingliz tilini o'rgatishda maxsus ingliz tili o'qituvchilari darslarni innovatsion texnologiyalar asosida olib borishmoqda. Bunday innovatsion texnologiyalar asosida dars o'tish avvaldan ma'lum bo'lgan an'anaviy dars o'tish uslubidan tubdan farq qiladi. Chunki, agar o'qituvchi har doim bir xil qolipdagi an'anaviy dars o'tish metodidan foydalangan holda dars o'tsa o'quvchilarda o'sha dars bo'lgan qiziqish va ishtiyoq yo'qoladi. Ayniqsa, bu usul boshlang'ich sinf o'quvchilari qo'llansa o'quvchilarda butunlay tilga bo'lgan munosabat yo'qoladi. Shuning uchun zamonaviy innovatsion texnologiyalarning boshlang'ich sinflarda til o'rgatishda o'rni muhim. Interfaol no-an'anaviy usullar bilan o'qituvchilarning bilim berishi bugungi kundagi har bir o'qituvchi uchun xosdir.

Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlardan foydalanib, zamonaviy texnikalar orqali o'tilishi jazzi bolajonlarning tilni chuqurroq o'rganishlari uchun zamin yaratadi. Ular bolalikdan o'z imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatlarini jalb qilish, ko'proq ma'lumot qabul qilish uchun harakat qilishadi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchilar ning zamonaviy innovatsion texnologiyalarni olib kirishi va u orqali dars o'tishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda yordam bermoqda. Qo'llanilayotgan har bir texnika o'zining maxsus vazifasi ega. Misol uchun, kompyuter orqali o'qituvchi o'tayotgan mavzusiga doir turli xil videoroliklar, kichik syujetli kinofilmlar, multfilmlarni o'quvchilarga ko'rsatishi mumkin. Bunday qo'llanmalarni nafaqat kompyuterda, balki boshqa texnikalar orqali ham ko'rsatish mumkin. Lingafonlar yoki audiouzatgichlar orqali esa turli mavzudagi audiolarni, dialoglarni eshittirib o'quvchilarning tinglab tushunish savodxonligini oshirish mumkin. Mutaxassislarining fikricha, dars jarayonida interfaol o'yinlardan foydalanish o'quvchi- ni faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi jarayon hisoblanadi. Chunki o'qituvchi qanchalik o'yinlardan ko'proq foydalansa, o'quvchilarda o'zlarining bilimlaridan ko'proq foydalangan holda ular ko'proq ishtirok etish va bir-birlari bilan raqobatda bo'lgan holda mavzularni o'zlashtirishi oson bo'ladi. Har bir o'yinni tashkil etishda o'qituvchi o'quvchilarni turli guruhlariga bo'lgan holda darsni olib borsa, ular butun dars davomida faol bo'lishadi. Bunday o'yinlar orqali dars o'tishning samarali tomonlaridan yana biri bu o'zlashtirishi sust bo'lgan o'quvchilarning ham o'yinlarda faol bo'lishidir. Chunki ba'zi bir o'quvchilar o'z bilimlarini boshqalar oldida tushunarli holatda yoritib bera olmaydilar.

Psixologlarning ta'kidlashiga ko'ra, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rni topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning

fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O'quvchi interfaol o'yinlardan foydalangan holda dars o'tishda haqiqatdan ham o'zini to'laqonli ko'rsatishiga sharoit yaratiladi. Bu vaziyat o'zlashtirishi sust bo'lgan o'quvchilar uchun yana ayni muddaodir. O'qituvchi an'anaviy holatda dars o'tgan paytdagiga qaraganda bu o'quvchilar o'yin faoliyatida ko'proq o'zlarini ko'rsata oladilar. Shunday o'quvchilar borki, ular o'yinlar davomida o'zlarining imkoniyatlarini amalga oshirib, o'z-o'zlarini boshqara oladilar.

Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'qituvchi tashkil qiladigan o'yinlar asosan, o'sha kunda qaysi mavzu o'tilishiga asoslangan holda tuzilishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemaolol faoliyat ko'rsatadi. Chunki o'quvchilar har doim bir xil holda o'tiladigan darslardan zerikishadi. O'qituvchi qandaydir bir yangi o'yinni tashkil etsa, o'quvchilarda o'sha o'yinga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi va o'yin natijasida ular yangi mavzuni qanday oson tushunishganlarini his qiladilar.

Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi. Shundan so'ng o'zlarida ishonch hissi ko'proq uyg'onadi. O'quvchilar har bir darsda bundan ham faolroq bo'lishga harakat qilishadi. Hozirgi kunda ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. O'quvchilarda o'tiladigan mavzu bo'yicha o'zlarida yetarli darajadagi tushunchalarni hosil qilish uchun o'qituvchi yangi darsni boshlagandan so'ng birinchi navbatda o'sha mavzu bo'yicha o'quvchilarning fikrlarini oldindan so'rashlari lozim. Bu esa o'quvchilarni bir-birlarini tinglab mustaqil fikrlashlariga imkoniyat yaratib beradi. Misol uchun, uy hayvonlari ( domestic animals) mavzusi bo'lsin. O'qituvchi dastlab o'quvchilardan uy hayvonlari nima? Ularga qaysi hayvonlar kiradi? Ularning hovvoyi hayvonlardan qanday farqi bor? Kabi savollar bilan har bir o'quvchining fikrini eshitsa ular ko'proq ma'lumot to'planadi.

Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda, quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelmoqda: "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative problem solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladiva qanday yakun topishi o'quvchilar hukmiga havola qilinadi. Bu usul ko'proq 3-4- sinf o'quvchilari uchun qo'llanilishi mumkin. Chunki ular ko'layotgan vaziyatga qarab undan xulosa chiqarish uchun, vaziyatni davom ettirish uchun oz miqdorda bo'lsada tushuncha bo'ladi.; "Quvnoq topishmoqlar" (Merry riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar. O'qituvchi dars davomida o'quvchilar

uchratadigan yangi so'zlar orqali hosil qilgan topishmoqlaridan o'quvchilar ko'proq yangi so'zlarni o'rganadilar;

"Tezkor javob" (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi. O'rganilgan mavzu bo'yicha qisqa va aniq javob talab qiladigan savollar tuziladi va ular orqali o'tilgan dars yaxshi mustahkamlanadi;

"Chigil yozdi" (Warm-up exercises) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish. Bu usul asosan, dars boshlangandan so'ng tashkil etiladi. O'qituvchi o'quvchilarga biror bir ingliz tilidagi qo'shiq eshittiradi va guruh bo'lib uni takrorlatadi yoki har bir o'quvchidan birma-bir inglizcha so'zlarni so'rab chiqadi. Kim to'xtamasdan oxirigacha yetib borsa o'sha o'quvchi g'loib bo'ladi va mukofotlanadi; "Pantomima" (Pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, o'quvchilar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi. Bu usulda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linishadi va so'zlarni yoki biror bir jarayonni imo-ishoralar bilan ko'rsatib berishadi. Agar bu usul o'quvchilarning charchagan paytlarida bajarilsa o'quvchilar o'zlarini yana tetik his qilishadi va darsga faolroq yondashishadi;

"Hikoya zanjiri" (A chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini oshirishda va xotirani mustahkamlashda yordam beradi. Berilgan kichik hikoyalarni o'quvchilar bir yoki ikki marta o'qib chiqishganidan so'ng o'sha hikoyani qaytadan aytib berishadi. Bu usuldan foydalangan holda o'qituvchi qaysi o'quvchining xotirasi qanchalik mustahkamligini bilib oladi;

"Rolli o'yinlar" (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Misol uchun, o'tiladigan dars "Ertaklar ( fairy tales )" mavzusi bo'lsin. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan ertakning qahramonlarini bo'lib olgan holda ularning harakatlarini ko'rsatish, gaplarini aytgan holda rol ijro etishadi. Shuningdek, bu usul ko'proq o'quvchilarning aktoyrlil qobiliyatini namoyom etishda ham muhim;

"Allomalar yig'ini" (Thinkers meeting) U. Shekspir, A. Navoiy, R. Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni "taklif qilish" mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so'zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi;

"Rasmlar so'zlaganda" (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim. O'qituvchi mavzuga oid rasmlarni o'quvchilarga tarqatadi yoki doskaga ilib qo'yadi. O'quvchilar rasmlardan foydalanib mavzuni yoritib berishadi. Bu usulda o'quvchilar o'zlarining gapirish ( speaking ) qobiliyatlarini rivojlantirishadi.;

"Kviz kartochkalari" (Quiz cards) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o'quvchilar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi, bu esa vaqtni tejaydi. Barcha o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan baholanisiga ham imkoniat yaratib beradi. Ushbu interfaol o'yinlarning maqsadi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonida faol harakati, ziyrakligi

asosiysi esa darsni qiziqarli tarzda o'zlashtirib, yodda saqlab qolishidir.

Bolalardakattayoshdagilarganisbatantilniyaxshiro-qvatezroqo'rganishgabo'lganmoyillikkuclibo'ladi, 6-7 yoshdagibolalarma'lumotlarni tushuni bermas, balki ularni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda ingliz tili grammatikasidan boshlamaslik kerak. Chunki ular dastlabki til o'rganish bosqichida zo'riqishga duch kelishadi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishlari so'nib boradi. Kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni o'rgatish anchagina mushkil ish hisoblanadi. Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli tarzda o'rgatish uchun quyidagi usullardan ham foydalanish samarali natijalar bermoqda:

Qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish.

Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra ko'proq samara berishini ko'rsatish mumkin. Ular alifboni qo'shiq tarzida yodlashsa, ham tez, ham oson o'rganishadi.

Aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog'liq o'yinlar;

Misol uchun "Zanjir o'yini" (Chain Drill) ni o'quvchilar bilan birgalikda o'ynalsa, o'qituvchi o'quvchilarni xonada doira shaklida teradi va qo'liga to'p olib bir o'quvchiga to'pni otadi va bitta yangi so'zni aytadi. To'pni qabul qilgan o'quvchi xohlagan bir o'quvchiga to'pni otadi va biror so'zni yoki uning tarjimasini so'raydi. O'yin shu tarzda davom etadi. Bu o'yin o'quvchilarning ham jismoniy ham aqliy qobiliyatlarini sinovdan o'tkazadi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'. Hoshimov, I. Yoqubov. "INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI" (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2003, 303 bet.
2. Otaboyeva.M.R. "Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish va uning samaradorligi" Toshkent. "молодой учёный".2017
3. Yo'ldosheva D.A. "Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning innovatsion usullari". Toshkent. "молодой учёный". 2017.
4. Internet sayti: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

Multfilmlar;

Bolalar til o'rganish davrida multfilmdagi gaplarni to'liq tushuna olishmasada, multfilm qahramonlarining xatti-harakatlari ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishadi. Bu esa o'quvchilarning tinglab tushunish (listening) qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ko'zga ko'rinadigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan buyumlarga yozish.

Masalan, eshik ( door ), deraza ( window ), kitob ( book ), daftar ( notebook ), va shu kabilarni ustiga nomini yozish. Bunday buyumlar o'quvchilarning deyarli har kuni ko'zlariga tashlanish turadigan buyumlardir va shu orqali ular tez-tez takrorlashadi va ko'proq so'zlarni yodlashadi.

Yangiliklar orqali;

Bolalar juda qiziqqon bo'lishadi va ular yangilikni yoqtirishadi. Agar o'qituvchi har kuni har xil usuldagi metodlardan foydalangan holda dars o'tsa o'quvchilarda o'sha darsga nisbatan qiziqish kuchayadi va ular qandaydir bir yangilikni kutgan holda darsga mustahkam tayyorlanib kelishadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, innovatsion metodlar asosida dars o'tishning ayniqsa, boshlang'ich sinflardagi o'rni beqiyosdir. Chunki, kichik yoshdagi o'quvchilarga ingliz tilini qiziqarli tarzda o'tish ularning kelajakda ingliz tilining yuqori pog'onalarini ham o'rganishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Innovatsion metodlar o'quvchilarda ko'proq bilim olishga ishtiyoq yaratib beradi. O'qituvchilar o'z dars jarayonlarida an'anaviy dars o'tish usuli bilan cheklanmagan holda dars o'tishsa, o'ylaymizki, kelajak avlodlar uchun ham bu usul yaxshi samarasini beradi.

## SIYOSIY FAN

XAVFSIZLIK, MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASH –  
USTUVOR VAZIFALARDAN BIRI*Sherniyazova Gulnara Utenyazovna**siyosatshunoslik fanlari nomzodi, dotsent, Berdax nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti,  
O'zbekiston, Nukus*ГЛАВНАЯ ОБЯЗАННОСТЬ – ЭТО ОБЕСПЕЧЕНИЕ БЕЗОПАСНОСТИ,  
МЕЖДУНАРОДНОГО МИРНОГО СОСУЩЕСТВОВАНИЯ И РЕЛИГИОЗНОЙ  
ТОЛЕРАНТНОСТИ*Шерниязова Гульнара Утениязовна**канд. полит. наук, доц., Каракалпакский Государственный Университет имени Бердаха,  
Узбекистан, г. Нукус*MAIN RESPONSIBILITY IS ENSURING SECURITY, INTERNATIONAL PEACE EXISTENCE  
AND RELIGIOUS TOLERANCE*Gulnara Sherniyazova**Candidate of Political Science, Associate Professor Karakalpak State University named after Berdakh,  
Uzbekistan, Nukus*

## ANNOTATSIYA

Maqola muallifi zamonaviy O'zbekiston ko'p millatli va ko'p konfessiyali mamlakat bo'lib, u erda turli millat va elatlar vakillari tinch va totuvlikda yashayotganini ta'kidlaydi. Bunday sifatli davlatga erishish O'zbekistonning insonparvarlik va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan milliy siyosatining mantiqiy natijasidir. Shuningdek, mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakat rahbariyati ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolarni hal etish bilan bir qatorda, milliy-madaniy qadriyatlar va an'analarni tiklashga muhim ahamiyat bera boshlaganligi qayd etildi.

## АННОТАЦИЯ

Автором статьи подчеркивается, что современный Узбекистан является многонациональной и многоконфессиональной страной, где представители различных наций и народностей проживают в мире и согласии. Достижение такого качественного состояния является закономерным результатом национальной политики Узбекистана, основанной на гуманизме и общечеловеческих ценностях. Также отмечается, что с первых дней независимости руководство страны наряду с решением социальных, экономических и политических задач начало придавать первостепенное значение вопросам восстановления этнокультурных ценностей и традиций.

## ABSTRACT

The author of the article emphasizes that modern Uzbekistan is a multinational and multiconfessional country where representatives of various nations and nationalities live in peace and harmony. The achievement of such a qualitative state is a logical result of the national policy of Uzbekistan based on humanism and universal values. It is also noted that from the first days of independence, the country's leadership, along with solving social, economic and political problems, began to attach paramount importance to the restoration of ethno-cultural values and traditions.

**Kalit so'zlar:** diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, ko'p millatli, ko'p konfessiyali, milliy va diniy siyosat.

**Ключевые слова:** религиозная толерантность, межнациональная гармония, многоэтническая, многоконфессиональная, национальная и религиозная политика.

**Keywords:** religious tolerance, interethnic harmony, multi-ethnic, multi-religious, national and religious politics/

Ko'p asrlar davomida turli etnik guruhlar, madaniyatlar va dinlar vakillari qadimiy va serhosil diyorimizda tinchlik va hamjihatlikda, osuda hayot kechirmoqda. Mehmondo'stlik, mehr-oqibat, samimiylik va samimiy bag'rikenglik o'zbek xalqiga doimo xos bo'lib kelgan va uning mentalitetining asosiga aylangan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida millatlararo munosabatlarning yangi bosqichi boshlandi. Mamlakatimizda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalish-

laridan biri bu bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, fuqarolik tushunchasi va hamjihatlikni mustahkamlash, yosh avlodni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashdir. Bularning barchasi hayotda to'liq ravishda amalga oshirildi.

“O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillarining o'zaro anglashuvi va hamjihatligi sharoitida osoyishta hayot kechirishi mustaqillik yillarida erishgan eng muhim yutuqlarimizdandir. Mamlakatda faoliyat

ko'rsatayotgan 137ta milliy madaniy markazlar millatlararo totuvlik va do'stlikni mustahkamlashda ulkan hissa qo'shayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Turli dinlar o'rtasida sabr-toqat muhitini mustahkamlash, fuqarolarning dinidan qat'iy nazar, ularning teng huquqliligini ta'minlash bizing ustuvor vazifalarimizdan biridir» [4], - deya ta'kidladi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev.

“2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”ning beshinchi yo'nalishi aynan diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash masalasiga bag'ishlangani mamlakat Prezidenti va hukumatining xalqaro hujjatlarda belgilangan umuminsoniy vazifalarga qaratayotgan yuksak e'tiborining namunasidir.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilish tashabbusi bilan chiqqani jahon hamjamiyatining diqqatini tortdi.

O'zbekistonda 16 xil konfessiyaga mansub 2 mingdan ortiq diniy tashkilotlar mavjud. Respublikada 158 xristian tashkilotlari, 8 yahudiy jamoalari, 6 bahayi jamoalari, Xare Krishna jamiyati va Buddistlar ibodatxonasi, jami 174 noislomiy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda yashaydigan barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analariga hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlangan, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratilgan. Tailim 7 tilda olib boriladi: o'zbek, qoraqalpoq, qirg'iz, rus, qozoq, tojik, turkman. Jurnallar 8 tilda, gazetalar 10 tilda nashr etiladi [3, b.106-107].

O'zbekistonda dindorlar barcha diniy bayramlarni bemalol nishonlaydilar. Har yili yurtimizda musulmonlar Qurbon Xayit va Ramazon Xayitini, xristianlar Pasxa va Rojdestvoni, yahudiyalar esa Peysax, Purim va Xanukka diniy bayramlarini keng ko'lamda nishonlashadi. Bundan tashqari, har yili respublika rahbariyatining to'liq ko'magi bilan dindorlar muqaddas joylarga ziyorat qilishadi.

Mustaqillik yillarida yurtimizdan 116 mingdan ortiq fuqaro Haj, 93 mingdan ortiq fuqarolar Umra safarini amalga oshirgan. [6]

2017 yil may oyida 140 dan ortiq milliy madaniy markazlarning samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar bo'yicha qo'mita tashkil etildi.

Xalqimizning boy madaniy, ilmiy va ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, ushbu merosni jahon hamjamiyati orasida keng targ'ib qilish, Islom dinining chinakam gumanistik mohiyati va mazmunini chuqur ochib berish maqsadida Toshkent shahrida Islom tsivilizatsiyasi markazini yaratish bo'yicha ishlar boshlandi. Bu erda dunyo madaniyati va musulmon tsivilizatsiyasining rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk allomalar va dinshunoslar, taniqli shoir va yozuvchilar, rassomlar va xattotlar haqida keng ma'lumotlar to'planadi.

Shu bilan bir qatorda, Imom Buxoriyning boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, uning ma'rifatli islom to'g'risidagi ta'limotlarini tarqatish maqsadida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Samarqandda buyuk alloma nomi bilan ataladigan xalqaro ilmiy markaz tashkil etishga qaror qildi.

O'zbekistonda hukmronlik qilayotgan do'stlik va hamjihatlik muhiti tinchlik va barqarorlikning eng muhim omili, olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'sini oshirishdir.

O'zbekistonning ushbu sohadagi milliy siyosati, xususan, quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Birinchidan, teng huquq va erkinliklarni, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlash.

Ikkinchidan, turli siyosiy institutlar, mafkuralar va qarashlar asosida ijtimoiy hayotning rivojlanishini ta'minlash.

Uchinchidan, turli millat va elatlar vakillarining tillari, urf-odatlari va an'analariga hurmatni ta'minlash, ularning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

"O'zbekiston xalqi millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari" degan konstitutsiyaviy qoidadan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Asosiy qonunimizda mustahkamlangan barcha huquq va erkinliklar barcha millat va elatlar vakillariga teng darajada istisnosiz tatbiq etiladi.

O'zbekiston milliy siyosatining asosiy printsiplari hayotda o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda 140 dan ortiq milliy-madaniy markazlar mavjud. Ta'kidlash joizki, milliy-madaniy markazlarning ko'p qirrali ma'naviy-ma'rifiy faoliyati bizning umumiy uyimiz - O'zbekistonda o'zaro hurmat va millatlararo bag'rikenglik ruhini qaror toptirishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarida ko'zda tutilgan teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, turli millat vakillari iqtisodiyot, fan va madaniyatning turli sohalarida samarali mehnat qilib, Vatan ravnaqi va mustaqilligining mustahkamlanishiga, mamlakatimizning dunyodagi obro'-e'tiborini oshirishga, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga munosib hissa qo'shmoqdalar. Va bu ishlari evaziga mamlakat rahbariyati va hukumati tomonidan munosib taqdirlanmoqda.

Jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda diniy bag'rikenglik muhim rol o'ynaydi.

Xalqimizga xos diniy bag'rikenglik an'anasi chuqur tarixiy ildizlarga ega. Ushbu an'analarni mustahkamlash, ularni mazmunli boyitish ham mustaqil O'zbekistonning din sohasidagi siyosatidir.

Diniy tashkilotlar bilan munosabatlarda davlat dunyoviy bo'lib, quyidagi tamoyillarga amal qiladi.

Birinchidan, dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish, diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ularning qonuniy birlashmalarining shaxsiy ishi sifatida tan olish.

Ikkinchidan, teng huquqlarning kafolati va diniy e'tirofga sazovor bo'lgan va ularni tan olmagan fuqarolarning ta'qib qilinishiga yo'l qo'yilmasligi.

Uchinchidan, turli diniy birlashmalar bilan ma'naviy tiklanish masalalarida o'z imkoniyatlaridan foydalanish



va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarini tasdiqlash zaruriyati.

Mustaqillik yillarida Islom ilmiga va ma'rifatiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalar va mutafakkirlarning ziyoratgohlari obodonlashtirildi, mamlakat aholisi va uning mehmonlari bu ziyoratgohlarga bemaol ziyorat qilmoqdalar. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan ko'plab tarixiy obidalar qayta tiklandi, me'moriy va yodgorlik majmualari qurildi, 1955 tasi ochildi, 2000 dan ortiq masjid va 9 madrasa faoliyat ko'rsatmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda 20 ga yaqin turli dinlarga mansub 2000 dan ortiq diniy tashkilotlar mavjud. Ularning aksariyati musulmon tashkilotlari. Mustaqillik yillarida yuzlab cherkovlar, ibodatxonalar va ibodat uylari qurildi va tiklandi. [5]

2018 yilda Toshkent Islom universiteti O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasiga aylantirildi. Shunday qilib, o'rta maxsus o'quv yurtlari va Toshkent Islom institutining bitiruvchilari diniy ta'limni akademik darajada davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Akademiyada o'zbek yoshlari bilan bir qatorda qo'shni davlatlar fuqarolari ham tahsil olishadi.

Diniy sohada ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni boshqa misollar ham tasdiqlaydi. Shunday qilib, 1996 yil noyabrda rus pravoslav cherkovining Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasining 125 yilligi keng nishonlandi. O'sha yilning dekabr oyida, Evangelist-lyuteranchilar jamoati O'rta Osiyoda yagona Markaziy lyuteran cherkovining 100 yilligini nishonladilar.

2002 yilda Markaziy Osiyoda katolitsizmning 100 yilligi nishonlandi. 2003 yil oktyabr oyida Samarqandda Arman Apostol cherkovining 100 yilligi munosabati bilan tadbirlar bo'lib o'tdi. [1, b. 8.]

Yuqorida aytilganlarning barchasi O'zbekiston millatlararo va dinlararo bag'rikenglik mamlakati degan xulosaga kelishimiza imkon beradi. Ham individual, ham ijtimoiy guruhlar darajasida, ham butun jamiyatda bag'rikenglik qadriyatlarining shakllanishi buyuk ke-lajakka erishish uchun asosdir.

Qadim zamonlardan beri Yer yuzida yashovchi xalqlar turli xil dinlarga e'tiqod qilib, o'ziga xos har xil madaniyatlariga, tiliga, urf-odatlar va turmush tarziga ega bo'lganlar. Mamlakatimizning eng muhim savdo yo'llarida joylashgan jug'rofiy joylashuvi, uning ko'plab mamlakatlar bilan madaniy aloqalari diniy va madaniy hayotga katta ta'sir ko'rsatdi va o'ziga xos turmush tarzini belgilaydigan omillardan biriga aylandi.

Xalqimiz tarixida turli millat va din vakillarining tinch-totuv yashab kelayotgani va hamkorligi, ularning bag'rikengligi, tinchligi va hamjamiyati haqida ko'plab misollar mavjud. Shu sababli O'zbekiston hududida hech qachon diniy sabablarga ko'ra nizolar bo'lmagan. Iliq munosabatlarni islom, xristian va yahudiy diniy jamoalar o'rtasidagi aloqalarda ko'rish mumkin.

Ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston dunyodagi ilk diniy qarashlar va g'oyalar paydo bo'lgan qadimiy joylardan biri hisoblanadi. Bunga Teshik-Tosh g'orlaridagi qadimiy qabristonlar, Faez-i Qora-tepadagi topilma relesi, Dalverzintepa va So'g'diyona topilmalari, shuningdek, frantsuz va yapon arxeologlari bilan hamkorlikda olib borilgan tadqiqotlar natijalari dalolat beradi.

Qadim zamonlardan beri bizning mintaqamizda zardushtiylik, buddizm, iudaizm mavjud bo'lgan. Ular keyinchalik murakkab mafkuraviy tizimlarga aylangan. Aksariyat mutaxassislar Markaziy Osiyoni, aniqrog'i Xorazmni zardushtiylik vatani deb hisoblashadi. Zardushtiylik hukm surgan bir davrda O'rta Osiyoda buddizm ham muhim o'rin egalladi.

Arablarining hujumi va mintaqada islom dini paydo bo'lishi arafasida Nestorian yo'nalishi bo'yicha xristianlik bu erdan Suriyadan Eron orqali o'tib, muhim mavqega ega bo'ldi. 6-asrning boshlarida Samarqandda nestorian episkopi, 8-asrda esa Nestorianlarning mitropoliti xizmat qilgan. Bundan tashqari, qadimgi davrlarda nasroniylikni qabul qilgan aholi hozirgi Toshkent va Xorazm viloyatlarida istiqomat qilishgan.

Ta'kidlash joizki, O'rta Osiyoda Islomgacha yak-kaxudolik g'oyasi mustaqil asosga ega edi. G'arbiy Turk xoqonligida Xoqon tizimining hukmronligi davrida (552-576) "tangri", "xudo" so'zlari muqaddas osmon – Yuqori kuch ma'nosida ishlatilgan.

Yuqori kuchni "tangri", "xudo" so'zlari bilan nomlash Markaziy Osiyo xalqlarining tilida shu qadar mustahkam o'rtnashganki, hattoki Islom dini paydo bo'lganidan keyin ham tubjoy xalqlar Ollohni "tangri", "xudo" deb atashgan. Bu hodisa hozir ham kuzatilmoqda. Umuman olganda, O'rta Osiyoda Islomgacha bo'lgan davrda 10 dan ortiq turli dinlar bo'lgan, deb ishoniladi.

VIII asrda O'rta Osiyoni arablar tomonidan bosib olishlari natijasida islomlashtirish boshlandi. Aholining bir qismi eng qadimgi din turlarini tan olishda davom etdilar. Mamlakatimizda yak-kaxudolikni qabul qilish uchun yaxshi asosning mavjudligi O'rta Osiyo xalqlari tomonidan Islom dinini tan olishga olib keldi. Bu erda islom va mahalliy dinlar, ularning qadriyatlar, marosimlari va urf-odatlar birlashdi. Markaziy Osiyo xalqlari mahalliy diniy va axloqiy g'oyalarni, huquqiy normalarni va urf-odatlarini Islom diniga kiritdilar. Shu sababli Islom Movarounnahrda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'la boshladi.

X asrda zamonaviy O'zbekiston hududida hanafiy maktabi paydo bo'ldi.

O'tmishning eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassam etgan O'zbekiston madaniyati, o'z navbatida, nafaqat islom madaniyatining keyingi rivojlanishiga, balki G'arbiy Uyg'onish davriga, global miqyosda bag'rikenglik tamoyillarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli xalqlarimizning madaniy yutuqlari nafaqat musulmon, balki dunyo madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Aynan shu davrda yaratilgan Imom al-Buxoriyning "al-Jomi as-sahih" (IX) hadislar to'plami zamondoshlari tomonidan an'anaviy sunniy to'plamlar ichida eng yaxshi deb tan olingan va hozirgi kunda dunyodagi barcha musulmonlarning asosiy kitoblaridan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu kitob orqali mamlakatimiz tarixida bag'rikenglik tamoyillari doimo ustun bo'lib kelganligini ko'rish mumkin.

O'sha paytda mavjud bo'lgan bag'rikenglik Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi diniy fikr vakillariga va dunyoviy ilm egalari hamda Farobiy, Xorazmiy, Beruniy kabi ilmiy qadriyatlarining tarqalish g'oyasini olib boruvchilarga yonmo-yon yashab ijod vilan shug'ullanishlariga imkon berdi.

13-asrda mo'g'ullar istilosi mintaqada islom dinining keyingi rivojlanishi jarayoniga o'ziga xos ta'sir ko'rsatdi. O'sha paytda shakllangan so'fiy oqimlari xalqni so'fiylarning g'ayriinsoniy bosqinchilariga qarshi birlashtiruvchi omilga aylandi, keyinchalik ular sarbadaqlar harakatida faol ishtirok etdilar.

Aynan shunday diniy muhitda buyuk Amir Temur dunyoga keldi. Temuriylar davrida Islom O'rta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynay boshladi. Amir Temur o'zining "Tuzuklar" kitobida shunday yozadi: "Men Allohning diniga va Muhammadning shariatiga qo'limdan kelgancha yordam berdim". U Islomni fanatizmdan xoli din, umuminsoniy din sifatida tushundi. Aynan uning bu tushunchasi unga o'z yurtida boshqa diniy imtiyozlarni qabul qilishga yordam bergan. Ushbu qirraning muhimligini ta'kidlab, qirol Karl VI Temurga quyidagicha xat yozgan: «Sizga g'amxo'rlik, muloyimlik va ko'plab masihiylarga berilgan imtiyozlar uchun minnatdorchilik bildiraman. Biz, o'z navbatida, sizning yordamingiz bilan va hatto undan ham ko'proq xalqingiz manfaatlariga xizmat qilishga tayyormiz».

Amir Temurning Evropa mamlakatlaridagi elchisi, Sultaniya arxiepiskopi Ioann «Memoir sur Tamerlan et sa Cour» kitobida Amir Temur shaxsiyati to'g'risida shunday deydi: «Temur chet elliklarni, xususan frantsuz va xristian savdogarlarini qabul qiladi, ularning butun mamlakat bo'ylab xavfsizligini ta'minlaydi, g'amxo'rlik ko'rsatadi va yordam beradi».

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдунабиев А. Исторические корни толерантности в Узбекистане // Толерантность – фактор стабильности общества: материалы межвуз. науч.-практ. конф. Ташкент, 2003. С. 8.
2. Источники об Амуре Тимуре // <https://www.samuzinfo.net/>
3. Milliy istiqlol g'oyasi. T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», 2010, 191 b. <https://religions.uz/faq/index#collapse1>
4. Мирзиёев Ш.М. Последовательное продолжение демократических реформ, обеспечение в стране мира и спокойствия, создание достойных условий жизни для нашего народа - гарантия устойчивого развития: Доклад кандидата в Президенты Республики Узбекистан на VIII съезде Движения предпринимателей и деловых людей - Либерально-демократической партии Узбекистана // Народное слово, 2016. 2 ноября.
5. Мухаммадсодиқов М. Религиозная толерантность как главная черта общественной жизни Узбекистана // Евразийский журнал региональных и политических исследований. 2009, №40.
6. Ўзбек халқининг ислом маданияти ривожига қўшган беқиёс ҳиссасининг юксак эътирофи / Президент Ислам Каримовнинг "Туркистон-пресс" нодавлат ахборот агентлиги мухбирига берган интервьюси // Ўзбекистон овози, 2007, 24 февраль.

Aynan shu bayonotdan keyin «Temur hayoti»ni frantsuzchaga tarjima qilgan Lyangle «tarixni noto'g'ri talqin qilish, Amir Temur shaxsini to'g'ri talqin qilish, idrok etish va baholashga xalaqit beradi», deb yozdi. [2]

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ulkan ma'naviy meros va bag'rikenglik an'alariga ega bo'lgan O'zbekiston dinga o'z munosabatini tubdan va aniq belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida vijdon erkinligi, to'siqsiz ibodat qilish, har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hatto biron bir dinga mansub bo'lmaslik kafolati berilgan.

1991 yil 14 iyunda mamlakatning huquqiy amaliyotida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" qonun qabul qilindi. Ushbu huquqiy hujjatlar asosida davlat diniy rahbarlarning diniy ishlariga aralashmasdan vijdon erkinligi uchun imkoniyat yarata-di. Eng yuksak fazilatlariga ega shaxsni tarbiyalashda dinning ahamiyati va zarurligi e'tirof etildi. Shu bilan birga, davlat dinlarning siyosiy lashuvi, ekstremistik va fundamentalistik oqimlarning paydo bo'lishining oldini olish choralari ko'rmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mintaqamiz xalqlari o'rtasida asrlar davomida mavjud bo'lgan hamkorlik, hamdo'stlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik mustaqillik yillarida o'ziga xos mazmun kasb etdi. Bu ko'p millatli va ko'p konfessiyali mamlakatimiz hududida irqidan, millatidan, dinidan va ona tilidan qat'i nazar, davlatimizning har bir fuqarosiga nisbatan bir xil munosabatni tasdiqlaydi.

## SOTSILOGIYA

ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ЁШЛАР ОНГИГА МЕДИАТАЪЛИМНИ  
ШАКЛЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ*Ибрагимова Нилуфар Юлдашевна**социология фанлари номзоди Қорақалпоғистон Республикаси халқ таълими  
ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази,  
Ўзбекистон, Нукус*ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕДИА-ОБРАЗОВАНИЯ В СОЗНАНИИ МОЛОДЫХ  
ЛЮДЕЙ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ*Ибрагимова Нилуфар Юлдашевна**канд. социол. наук, Региональный Центр Профессиональной переподготовки педагогических кадров  
народного образования Республики Каракалпакстан,  
Узбекистан, г. Нукус*PROBLEMS OF FORMATION OF MEDIA EDUCATION IN CONSCIOUSNESS OF YOUNG  
PEOPLE IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION*Nilufar Ibragimova**candidate of sociological sciences Regional Center for Professional retraining  
of teaching staff public education of the Republic of Karakalpakstan*

## АННОТАЦИЯ

Мақолада таълим тизимида ёшлар онгига коммуникатив маданиятни сингдириш муаммолари ҳақида фикр юритилади. Ёшларнинг ахборот хуружига кириб боришида медиа воситалардан тўғри фойдалана билишда таълим тизимининг ўрни ҳақида сўз юритилади. Ахборот коммуникатив воситаларининг тарбиявий томонларини ривожлантириш масаласига алоҳида эътибор қаратади.

## АННОТАЦИЯ

В статье освещены вопросы влияния современных информационных потоков на формирование коммуникативной культуры молодежи. Современный подросток весьма подвержен влиянию медиакультуры, оказывающей огромное влияние на его мировоззрение и отношение к окружающему миру. Автор статьи предлагает использовать воспитательный потенциал средств массовой информации для корректировки данного процесса.

## ABSTRACT

This article deals with the questions of modern information flow influence in forming communicative culture of youth. Modern undergoes to the influence of mass media, forming a great influence to them mental outlook and relation to the environment. The author of the article suggests to use upbringing potential of mass media for correction the given process.

**Калит сўзлар:** глобаллашув, глобал муаммолар, маданият, медиа, медиатаълим, оммавий маданият, медиамаданият, медиамухит, медиасаводхонлик, медиабозор, тарбиявий жараён.

**Ключевые слова:** глобализация, глобальные проблемы, культура, медиа, медиаобразование, массовая культура, медиакультура, медиасреда, медиазнания, медиарынок, воспитательный потенциал.

**Key words:** globalization, global problems, culture, media, mediaeducation, mass culture, mediaculture, mediaenvironment, media building, mediamarket, educational potential.

Жадал ўзгараётган замон ўз олдида янги бир муаммони қўяди. Мана шундай долзарб муаммолардан бири глобаллашув жараёнидир. Глобаллашув тушунчаси француз тилидан «**global**» умумжаҳон ва лотин тилидан «**globus**» сўзидан олинган бўлиб, ер шари деган маъноларни англатади. Демак, глобализация атамаси ер юзида яшаётган инсонларнинг умумжаҳон цивилизациялашуви натижасида юзага келадиган ижтимоий жараёнларни ифодалайди.

Глобал муаммоларнинг юзага келишини тадқиқ этишларига кўра, асосий сабаблари жаҳон молиявий-иқтисодий танглик натижасида деб қаралади. Бугунги ахборот коммуникатив технологияларнинг тез тараққий этиши натижасида янги глобал муаммолардан бири ёшлар онгига медиатаълим, медиамаданият, медиаалоқа тушунчаларини сингдиришдан иборат.

Шахсининг ва маданиятнинг ўзгариши ёш авлоднинг жиддий муаммоларга дуч келишига сабаб

бўлмоқда. Бундай ўзгаришлар асосан оммавий ахборот технологиялари воситаларининг таъсири остида цивилизациянинг тараққий этиши билан боғлиқ ҳолда содир бўлмоқда.

Бу борада канадалик философ олим М. Маклюэннинг ажойиб кузатишига кўра, коммуникация воситалари инсониятга ва жамиятга ўз-ўзидан таъсир кўрсатади.[6] Шунинг учун коммуникацион технологиялар мактаб ўқувчиларида катта қизиқиш уйғотади. [2, б. 14-19.]

Глобаллашув жараёнида *медиа* ҳар хил аҳоли қатламлари ўртасида кенг тарқалган норасмий таълим тизимидир. Медиа – бу жамиятда тўғри ва айланма коммуникатив алоқа тизими бўлиб, инсонлар билан вақтинча ўзаро алоқадорликни юзага келтирувчи ва уларни қизиқтирувчи, чалғитувчи макондир.

Медиатаълим ўзи нима?

«Медиа» атамаси (лотин тилидан *media, medium* – қўлланма, воситачи маъноларини англатади) – XX асрда дастлаб оммавий маданиятни шакллантирувчи воситаларга қўлланган. Янги феноменнинг вужудга келиши натижасида, атамашуносликда унинг функцияларини тараққий эттириш, атама билан боғлиқ жиҳатлар ва илгари мавжуд бўлмаган асослари яратила бошлади. Ушбу калит сўзнинг вужудга келиши натижасида, «медиамуҳит», «медиамаданият», «медиаълим», «медиаасаводхонлик» ва ҳоказо атамалар ҳам қўлланила бошлади. Қисқа вақт давомида медиа маданиятни европалик олимлардан Арнхейм, А. Базен, Р. Барт, В. Бенъямин, М. Фуко, Ж. Деррида, Ж. Делёз, Г. Дебор, Г. Маркузе, Т. Дж. Митчелл, Ж. Лакан, Ж. Бодрийяр, Г. Полок, М. Маклюэн, С. Жижек, Б. Гройс, Ортега-и-Гассет ва бошқалар назарий жиҳатларини тадқиқ этган.

Француз социологи Пьер Будъенинг таъкидлашича, «медиамаданият» тушунчасини таянч маконда ҳар хил «капитал»ларнинг ёрдами билан бажарувчи конвертланган «рамзий капитал» кўринишида талкин этган. [1]

Бизнинг фикримизча, медиамаданият – бу глобаллашув жараёнида инсониятнинг тараққий этишини доимо янгилаб турувчи, таянувчи ва кўптармоқли маданиятнинг рамзий медиа шакллари мажмуидир.

Медиамаданиятнинг таркибий қисмига қуйидагиларни киритиш мумкин: медиамаданият – «медиамуҳит», «медиаълим», «медиаасаводхонлик», «медиабозор», «медиақурилиш» каби компонентларнинг асосий қисмидир.

Бизнинг тадқиқ этишимизга кўра, медианинг асосий компонентлари мавжуд: медиамаданият, медиамуҳит ва медиатаълим.

1. Медиамаданият – (media culture) – медиа доирасидаги маънавий ва моддий бойликлар мажмуи, шунингдек, ижтимоийлашувнинг қайта ишлаб чиқарилиши, инсониятнинг медиамаданият билан ўзаро муносабатини тараққий эттириш тизимидир. Медиа макон доирасида инсонлар медиааратувчанликка интилади, медиаматнларни баҳолайди, таҳлил қилади ва қабул қилади. Медиа маданият тушунчаси – ахборот маданияти (information culture), видео

маданияти (video culture), аудиовизуал маданияти (audiovisual culture) каби тушунчаларга яқиндир.

2. Медиамуҳит – кўпгина медиа тушунчалари каби, ахборот алмашинув жараёнида, касбий ва таълимий тизимда маданиятнинг юксалиш механизми бўлиб, ахборот технологиялари асосларида таълим ва тарбияни ўз ичига камраб олади.

3. Медиатаълим – (инглиз. media education, лотинча. media – восита). Таълим тушунчаси эса, маънавий ва ахлоқий, маданий бойликлар доирасида касбий ва илмий билимларни ишлаб чиқарувчи ижтимоий институтдир. [5]

Медиатаълим оммавий ахборот воситалари (жамоатчилик, телевидение, радио, кино, видео, интернет ва б.) орқали таълим олувчиларга объектив қонуниятларни кўрсатади. Медиатаълимнинг асосий вазифаларидан бири: ёш авлодни ахборот технологиялар имкониятларидан тўғри фойдаланишга тарбиялайди, ёшларнинг ҳар хил берилаётган ахборотларни тўғри тушунишини, ўзининг мустақил фикрини, жамоатчилик билан ўзаро муносабат маданиятини шакллантиради ва коммуникацион технологиялар ёрдамида инсон онгига таъсир этувчи новербаль муносабатларни йўлга қўяди. Медиа маданият жамоатчиликка аралашуви натижасида иқтисодиёт ва сиёсатга кириб келади, инсонларнинг тафаккурини ижтимоийлашувини, дунёга кўз қарашини, мустақил ва жамоавий ўзаро муносабатларини шакллантиради. Ёшлар эртанги кун одамлари эканлигини ҳисобга олсак, медиатаълимнинг долзарблиги, аҳамияти билан бирга ёшлар онгига медиамаданиятни ҳам сингдириб бориш зарур.

Медиа ахборотлашган жамият кишилиги жамиятнинг ривожланишининг бугунги босқичида шаклланаётган ва ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларида ахборот ва интернет тармоқларидан тўғри фойдаланиш ёшлар онгида ижобий хислатларни шакллантириш билан бирга бир қанча муаммоларни ҳам келтириб чиқаради. Бундай муаммолар қуйидагича:

- ёшларнинг тармоқларга ва сайтларга боғланиб қолиши;
- эротик ва парнографик маълумотларга қизиқиб кетиши;
- ёлғон маълумотларни қабул қилиши;
- ижтимоий онгининг манипуляция қилиниши;
- миллий-маънавий кадрятларнинг емирилиши;
- бегона ғояларнинг тўғридан тўғри кадрят сифатида сингдирилиши;
- халқимизнинг тарихий хотирасини ўзгартириш ва бузиш;
- кибертерроризмнинг авж олиши;
- ён атрофдагилар билан мулоқотнинг йўқолиши ва б.

Медиа истеъмоли ижтимоий, маънавий эҳтиёжларни қондиришга қаратилган ҳодиса бўлиб, ҳар қандай хизматни истеъмол қилишдан олдин унинг сифати, нархи, фойдаси, қулайлиги ва бошқа шу каби хусусиятларни инобатга олиши керак. Ахборотлар ким томонидан истеъмол қилинишидан қатъий назар ахборот истеъмол маданиятига эъти-

бор қаратилиши керак. Шунингдек, ҳар қандай истеъмол инсонларнинг маънавий маънавиятининг таркибига айланиб бориши керак.

Ёшлар онгида медиа воситалардан қандай тўғри фойдаланишни шакллантириш масаласига эътибор қаратиш зарур. Медиа истеъмол маданиятини тўғри фойдалана олиш глобаллашув жараёнида интернет тармоғидан жадал ривожланиб бораётган бугунги ҳолатда аҳамиятли вазифалардан бири саналади. Таълим муассасаларида ёшлар онгида тўғри шаклланиши учун китобга бўлган қизиқиш ва китоблардан фойдаланиш маданиятини шакллантирилса, ўқувчи ёшларнинг кундалик фаолияти бўш вақтларини тўғри ташкил қилиш, ҳар хил спорт тўғралаари ва фан тўғралаарини ташкил қилиб тадбирлар ўтказиш ва уларни рағбатлантириб борилса, ўқувчи ёшлар медиа воситаларидан керакли маълумотларни олишда тўғри фойдаланади. Шунингдек, ёшларнинг ахборот хуружларига айланиб қолмаслик учун, ахборот функциялари ва ресурсларини химояланган ахборот муҳитини назорат қилиш зарур.

Ахборот хуружлари таъсири доирасида ёшларнинг ички дунёсида вужудга келадиган руҳий инқирозлар ва танглик, уларнинг ҳаёти давомида учрайдиган муаммоларга, воқеа ва ҳодисаларга объектив муносабатда бўлиш талаб қилинади. Ахборот хуружи таъсирида қолган ёшларда учраган муаммоларга ижобий ечим топа олмаслик, узокни кўра олмаслик, эҳтиётсиз ҳатти-ҳаракатларга мойиллик, далилларга таяниб эмас, балки эмоционал хиссиётларга берилиб иш кўриш кабилар кзатилади. Бундай ҳолатларда ўқувчи ёшларни таълим тизимида, оилада ёки жамоада ички дунёсига нисбатан негатив муносабатни эмас, аксинча иммунитетини мустаҳкамловчи тарбия тизимини яратиш керак бўлади.

Жамиятнинг ҳар бир янги босқичи тарихга янги ёндошувни талаб қилади. Маънавий ҳаётда янги ҳодисалар умумий бўлиб, умуминсоний қадриятлар ва мезонлар асосида янги даврда бўлаётган жараёнларга таъсир ўтказиш мумкин. Инсоният

тараққиётининг барча ривожланиш босқичларида ёшлар тарбияси энг долзарб муаммолардан бири саналган.

Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти И.А. Каримовнинг медиа маданиятнинг ёшлар онгига таъсири ҳақида «Оммавий ахборот воситалари ҳаётимизга кун сайин чуқурроқ кириб бораётганлигини ҳозир ҳеч биримиз инкор қила олмаймиз. Шунингдек бу жараённи биз табиий ҳол сифатида ҳам қабул қила олмаймиз» таъкидларида медиа воситаларининг ёшлар онгига таъсири хавфини кўра олган. [3, б. 29] Ёшлар онги ва менталитетда медиа маданиятнинг самарали шаклланишига узлуксиз механизмни яратиш зарурлиги: «Бундай таҳдидларга қарши ҳар томонлама чуқур ўйланган, пухта илмий асосда ташкил этилган, мунтазам ва узлуксиз равишда олиб бориладиган маънавий тарбия билан жавоб бериш мумкин»лиги ҳақида таъкидлари ўринлидир. [4, б. 116]

Ҳар қандай фан ва техника тараққиёти маҳсулидан самарали фойдалана олиш ўсиб келаётган авлодларнинг халқимизнинг турли тарихий даврларда кечирган синовларига бардош берган юксак маънавияти ва бой қадриятлари асосида ёшларни ўз фикрига эга, турли маънавий хуружларга қарши тура оладиган иродали, фидойи ва ватанпарвар инсонлар қилиб тарбиялаш керак.

Хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, ёшларнинг медиамаданиятини шакллантиришда оммавий ахборот воситаларининг ролини янада ошириш керак. Шунингдек, оммавий ахборот воситалари орқали медиа маданият ва медиа воситалардан тўғри фойдаланиши учун ёшлар хотирасида чуқур из қолдирадиган, уларни фикрлашга ўргатувчи, диққатини торта оладиган кўрсатувлар берилиб бориш натижасида, ёшлар ўзини-ўзи назорат қила олиш, ўзига-ўзи баҳо бериш қобилиятларининг шакллантиради ва жамоага мослашув кўникмаларини ҳосил қилади.

#### Адабиётлар рўйхати:

1. Бурдые П. Рынок символической продукции / П. Бурдые // Социологическое пространство Пьера Бурдые [Электронный ресурс]. 2007. -Режим доступа: <http://bourdieu.narod.ru> – Дата доступа: 22.10.2011.
2. Гудилина С.И. Медиаобразование: грамотность и зрительская культура: Образовательные технологии XXI века // Материалы XI городской научно-практической конференции / под ред. Гудилиной С.И., Тихомировой К.М., Рудаковой Д.Т., Васильевой Н.И. -М., 2011. -С. 14-19.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. -Т.: Ўзбекистон, 1999. 29 б.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият энгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. 116 б.
5. Культурология в вопросах и ответах / под ред. Г.В. Драча. М., 1999.
6. Маклюэн М. Понимание Медиа: внешнее расширение человека. М., 2003.

## FILOLOGIYA

## LINGVOKULTUROLOGIYANING TADQIQOT OBYEKTI, PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

*Bekiyeva Malika Jamoldinovna**Andijon davlat tibbiyot instituti o'qituvchisi,  
O'zbekiston, Andijon*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari tadqiq qilingan. Shuningdek, lingvomadaniy birliklar, muqobilsiz leksika va lakunalar, tilning paremiologik va frazeologik fondi haqida so'z borgan.

## АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются объект исследования, предмет, цели и задачи лингвокультурологии. Речь шла также о лингвокультурных единицах, незаменимых словарных и пробелах, паремиологическом и фразеологическом фонде языка.

## ABSTRACT

This article examines the research object, subject, goals and objectives of lingvoculturology. There was also a discussion of linguocultural units, lexicons and lacunae without alternatives, paremiological and phraseological fund of the language.

**Kalit so'zlar:** lingvokulturologiya, muqobilsiz leksika, lakuna, paremiologik fond, frazeologik fond, o'xshatish, stereotip, ramzlar, konsept.

**Ключевые слова:** лингвокультурология, безальтернативный словарь, лакуна, паремиологический фонд, фразеологический фонд, аналогия, стереотип, символы, концепт.

**Keywords:** lingvoculturology, non-alternative vocabulary, lacuna, paremiological fund, phraseological fund, analogy, stereotype, symbols, concept.

Ma'naviyatimizning asosi bo'lgan adabiy tilimizni yanada rivojlantirish, xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy-ma'naviy qadriyatlarini tiklash, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy merosni o'rganish, mustaqillik mafkurasini badiiy ijod sohasida, ta'lim jarayonida yoshlarimiz ongiga singdirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Ma'lumki, kishilar o'rtasidagi aloqaning eng muhim vositasi, fikrni boshqalarga yetkazuvchi qurol bu tildir. Shu bilan birga tilda milliy madaniyatning o'ziga xos oynasi bo'lgan, uni saqlovchi, avloddan avlodga yetkazuvchi birliklar bo'lgan til birliklarni o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi

Zamonaviy lingvokulturologiyaning predmeti turli kodlar - til va madaniyatning hamkorligi natijasida shakllanadigan lisoniy belgilardir. Har bir til shaxsi ayni holatda madaniy shaxs ham hisoblanadi. Shuning uchun til belgilari madaniyatning «tili» ham hisoblanadi va til egasining milliy-madaniy o'zligini ham ko'rsatib beradi. Shu o'rinda barcha grammatik qoidalarga bo'ysungan taqdirda ham ayrim «madaniy to'siqlar» bo'lishi mumkinligini aytib o'tish darkor. A.Vejbistkoy nemis orkestriga dirijyorlik qilish uchun chaqirilgan bir ingliz dirijyori haqida quyidagi voqeani keltiradi: Boshida ish yaxshi yurishmaydi. Dirijyor buning sababi ingliz tilida gapirganligi va nemislar uni "o'ziniki" sifatida qabul qilmayotganidan deb o'ylaydi va nemis tilini o'rganishga intiladi. Birinchi bo'lib ustozidan quyidagi gapni nemischaga tarjima qilib berishni so'raydi: «Eshitinglar, menimcha, mana bundoq qilib chalgan yaxshiroq». Tarjimon o'ylanib qoladi: «Aslida tarjima

qilsa bo'ladi. Biroq «mana bunday chalish kerak» deb qo'ya qolish ma'qulroq».

Bundan chiqadigan xulosa shuki, madaniy to'siq nutq madaniyati normalariga bilan ham bog'liq.

Biz doimo madaniyat haqida bir narsani bilish uchun til materiallarini jalb qilamiz. Xuddi shuningdek, til faktlarini tahlil qilish uchun madaniy realiyalarga murojaat qilamiz. Xorij tilshunosligida madaniy argumentatsiyaning o'rni va salmog'i o'zgardi, ayniqsa kognitiv semantikada. Til birligini madaniy kontekstda tahlil qilish tilshunoslik oldiga bir qator yangi muammolarni qo'ydi. Lingvokulturologiya alohida bilimlar tarmog'i sifatida o'ziga xos vazifalarni bajarishi kerak, ayniqsa, quyidagi masalalarga e'tibor berishi kerak:[1,b.78]

1) til konseptlari tashkil topishida madaniyatning o'rni qanday?

2) til birligi mazmunining qaysi qismiga «madaniy ma'no» birikkan bo'ladi?

3) so'zlovchi yoki tinglovchi bu ma'nolarni anglagan holda qo'llaydilar va bular nutq strategiyasiga qanday ta'sir qiladi?

4) amalda til egasining madaniy-lisoniy kompetensiyasi mavjudmi? Unda matnga singdirilgan va til egalari tomonidan anglangan bo'lishi kerak. Madaniy-lisoniy kompetensiyaning vaqtinchalik ishchi ta'rifini ishlab chiqamiz: u til shaxsining nutq hosil qilish va nutq ijro qilishning tabiiy ko'nikmalariga ega bo'lishi bo'lib, ayniqsa, madaniyat qoidalarini bilish muhimdir. Buni isbotlash uchun til birliklarini tahlil qilishning yangi texnologiyalari kerak;

5) ularning konseptosferasi qanaqa, madaniyatning ifodalanish holatlari-chi? Bir madaniyat sohibi va ko'p madaniyat sohiblari tomonidan ifodalanishi-chi?

6) bu fanning asosiy tushunchalarini qanday tartiblash lozim? Bu tartib til va madaniyatning harakatdagi muammolarini tahlil qilish bilan birga, mazkur paradigma - antroposentirik yoki antropologik paradigmadan tashqarida ham tushunarli bo'lishi lozim;

Bu ro'yxatni to'liq deb hisoblash mumkin emas. Ularni hal qilish o'z-o'zidan yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur yuqori darajali yoki umumepistemologik vazifalarni P.M. Frumkina barcha fanlar uchun tegishli deb hisoblaydi.

Bu muammolarni hal qilishda qo'shimcha qiyinchilik tug'diruvchi yana bir xususiyat nazardan chetda qolmasligi kerak: til birliklarining madaniy axboroti implisit xarakterda bo'lib, til belgilari ortida yashiringan bo'ladi.[2,b.97]

Bularni idiomalar, iboralar, matallar misolida ham kuzatsak bo'ladi.

V.N.Teliya til birliklarining milliy-madaniy belgilarini tabdil qilishning o'ziga xos usulini taklif qiladi.[5,b.134] Ya'ni uni tilning «ichidan» ichki kuzatuvchi tariqasida tahlil etish kerak. Masalan, kollokatsiya (ajralmas birikmalar)ni lingvokulturologik aspektda tabdil qilish modallik, shuningdek, psixologik omillar bilan bog'liq bo'ladi.

V.N.Teliya taklif qilgan ushbu usuldan tashqari til faktlarini tashqaridan turib ham tahlil qilish talab qilinadi.[6,b.71]

Hozirgi kunda lingvokulturologiyani chetlab o'tgan holda tilshunoslikda biror ishni amalga oshirish qiyin. Uni rad qilish ilmiy jamiyat dunyoqarashiga mos kelmaydi.

Lingvokulturologik tadqiqotning obyekti va predmetini tushuntirishga harakat qilamiz. Barcha ijtimoiy fanlarning umumiy obyekti inson hisoblanadi. Biroq har bir fanning alohida predmeti bor - inson va uning faoliyatiga tegishli biror jihatdir.

Lingvokulturologik tadqiqotning obyekti madaniy axborotning tarjimoni bo'lgan tilning o'zaro aloqalarini o'rganishdir. Bu obyekt bir qancha fundamental fan - tilshunoslik va madaniyatshunoslik, etnografiya va psixolingvistikaning tutashgan nuqtasida paydo bo'lgan.

Tadqiqot predmeti esa til birliklaridir. Bu birliklar madaniyatda simvolik, etalonlik, ramziy-metaforik

ahamiyatga ega bo'lib, inson tafakkuri faoliyati natijasida yuzaga kelgan. Shuningdek, arxetipik va prototipik mazmunga ega bo'lib, mif, afsona, rasm-rusum, folklor va diniy matnlar, yana she'riy va nasriy badiiy matnlarda, iboralar, metaforalar, ramzlar va paremiyalarda uchraydi.

Shu tufayli ham aynan bir lingvokulturologik birlikning o'zi bir necha semiotik tizimga mansub bo'ladi. Rasm-rusum stereotipi matalga o'tib, keyinchalik iboraga aylanadi.[3,b.76]

Ba'zan birgina lingvokulturologik birlik mif, matal va iboralar tarkibiga singib ketgan bo'ladi: bo'ri qadimgi xalqlar tasavvurida qaroqchi, qotil, kallakesar sifatida gavdalanadi. Turkiy xalqlarda esa uning bo'ysunmaslik, erkinlikka ishtiyoqi masalasi birinchi o'ringa ko'tarilgan. Masalan, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida Afrosiyobning o'limidan qayg'urib yig'layotgan beklar «bo'ri bo'lib ulidilar» deyilsa, «Kul tigin» bitiktoshida «Qo'shinim bo'ri kabi edi», - deyiladi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari 31-bobida bekning mardligi bo'riga o'xshatiladi. Xalq tilida esa «mahallaning bo'risi» kabi metaforalar ishlatiladi. Maqollarda «Bo'rining yesa ham og'zi qon, yemasa ham» kabi tarzda qarama-qarshi fikrlar ham uchraydi.[4,b.122]

Tadqiqot obyekti tushunchasi ostida har biri alohida lingvokulturologik birlik bo'lgan bir necha predmet yotadi.[7,b.89] Biz bulardan bir nechtasini ajratib ko'rsatamiz, biroq ularning miqdorini yanada ko'paytirish mumkin. Ular:

1) lingvoo'lkashunoslikning predmeti muqobilsiz so'zlar va lakunalardir, shuningdek, ular lingvokulturologiyaning ham predmetidir;

2) miflashgan til birliklari: arxetiplar, mifologemlar, marosimlar va inonchlar, rasm-rusum hamda odatlar, ular til birliklari tarkibiga yaxlitlangan bo'ladi;

3) tilning paremiologik fondi;

4) tilning frazeologik fondi;

5) etalonlar, stereotiplar, ramzlar;

6) tildagi metaforalar va timsollar;

7) tilning uslubiy imkoniyatlari;

8) nutq madaniyati;

9) nutq odobi sohasi.

Ko'rsatilgan birliklar geterogen yig'indi bo'lsa-da, ular nisbatan «madaniyat tashuvchisi» ekanligi tufayli tadqiqot obyektiga aylanadi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Маслова В.А. Введения в лингвокультурологию, - М.:Наследие, 1992.
2. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. - М., 1985.
3. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально - культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф.дисс.канд.филол.наук. - Ташкент, 2010.
4. Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари «Ўзбек тили ва адабиёти» журн., 2012. № 5.
5. Телия Н.В., Типы языковых значений. Связанное значение слова в языке. - М., 1981.
6. Телия В.Н. Русская фразеология. - М., 1989.
7. Сепир Э. Отношение норм. Поведения и мышления к языку в кн.: НЛ.в.1. М.,1960.

## BADIIY MATNDA PERSONAJLAR NUTQINI INDIVIDUALLASHTIRISHDA IBORALARNING LESKIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI

*Qurbonov Samgin Azamat o'g'li*

*Samarqand davlat universiteti II bosqich magistranti,  
O'zbekiston, Samarqand sh.*

Iboralar boshqa lisoniy birliklardan obrazlilik va modal munosabatni yuqori darajada yuzaga chiqarishi bilan ajralib turadi. Ana shu jihatdan ularning badiiy asardagi o'rni va ahamiyati juda muhim. O'zbek tilidagi iboralarning uslubiy xususiyatlarini chuqur o'rganagan olim B.Yo'ldoshev bu haqida shunday yozadi: "Frazeologik birliklar so'zlardan farqli holda obyektiv reallikdagi muayyan voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi"[1]. Demakki, iboralar voqelikka subyektning shaxsiy munosabatini ko'rsatib berishga xizmat qilar ekan, ularning badiiy tildagi mavqei beqiyosdir. Zulfiya asarlari tilining uslubiy xususiyatlarini tadqiq etgan tilshunos olim S.Karimov e'tirof etganidek, yozuvchilarning o'z ijodlarida frazeologik birliklardan – xalq tilining emotsional-ekspressiv jihatdan boy bo'lgan qatlamidan – foydalanishi har qanday muallifning badiiy mahoratini namoyon qiluvchi muhim ko'rsatkichdir[2, 42-b].

Aytish joizki, frazeologik birliklarning badiiy asardagi uslubiy xususiyatlarini o'rganish muallif ijodiy uslubining o'ziga xos tomonlarini chuqurroq ochish, obraz yaratishda til birliklaridan qanchalik o'z o'rnida novatorlik bilan foydalanganligini anglash imkonini beradi.

Murod Muhammad Do'st milliy tilni ich-ichidan chuqur bilgan, undagi eng nozik ma'no nuqtalarigacha teran his qilgan ijodkor sifatida o'z qissalarida tilning bunday katta imkoniyatlarga ega vositalaridan, iboralardan mahorat bilan foydalangan.

Xususan, "Galatepaga qaytish" qissasida voqelikni obrazli tasvirlash, qahramon shaxsiyatini va ma'naviy-ruhiy qiyofasini ochib berish maqsadida ko'plab xalq iboralariga murojaat qilingan. Masalan, quyidagi o'rinda G'aybarovga atrofda gilarining munosabatini ochib berishda ola qaramoq iborasi qo'llanilgan. Ta'kidlash lozimki, bu ibora mazkur holatni bir necha satrik quruq bayondan ko'ra aniq va mufassalroq tasvirlashga xizmat qilgan: "G'aybarov janozaga arang yetib keldi. Ukalari, ko'ngil yetar qarindoshlar – hamma uni yig'lab qarshi oldi. Lekin uning o'zi yig'layolmadi. Hatto mozorda ham ko'zidan yosh chiqmadi, begona odamday bir chekkada turdi. Unga ola qarashdi". [3, 3-b.]

Yozuvchi ko'p o'rinlarda tasvirlanayotgan epizodda asosiy mazmun tashuvchi biror bir so'zning ma'nosini yanada kuchaytirish va bu orqali tasvirni aniqlashtirish uchun bir nechta iboralardan foydalanadi: "Galatepaning chang ko'chalarida xarish xo'tikday ag'anab o'sgan, mana, biror besh kundirki, bulardan uzoqlashgan bola, hali shahar havosiga to'ymagan, o'zining naq qahramonlik ko'ringan uddaburonligidan, jur'at va jozibasidan mast, boshi aylangan – o'zini qayga qo'yarini bilmaydi..." [3, 122-b.] Mazkur o'rinda muallif G'aybarovning ayni paytdagi holatini tas-

virlashda asosiy "yuk"ni o'z ustiga olgan mast so'zining ma'nosini kuchaytirish, shu asosda tasvirni yanada quyuqlashtirish uchun birdaniga boshi aylangan – o'zini qayga qo'yarini bilmaydi kabi ikkita iboradan foydalanadi. Natijada nafaqat ma'no kuchayadi, balki tasvir o'quvchi uchun yanada ravshanlashadi.

Adib mana bu tasvirda ham Ochil Kuchning qiyofasini ochib berish uchun bir o'rinda ikkita iborani keltirgan, bu iboralar bir-birining ma'nosini to'ldirib, qisqa shaklda keng ma'no ifodlashga xizmat qilgan: "Ochil Kuch guppiroq odam, gapga tez uchadi. Umr bo'yi birovlarining qutqusiga qul bo'lib o'tdi". [3, 9-b.]

Iboralarning badiiy-estetik maqsad bilan bunday qavatlanib qo'llanishi yozuvchining bu birliklardan foydalanishida namoyon bo'luvchi o'ziga xos xususiyat deyishimiz mumkin, negaki adib asarlarida iboralarning bunday qo'llanilishi juda ko'p ko'zga tashlanadi: "...soy bo'yiga borib nima qilasan? Mavlonni urishding, so'kding, xo'sh keyin-chi? Shoxing chiqadimi? Mayli, xotini uni ming bora yo'ldan ursin, pichoq qilib qayrasin, otangning, sening tanningga tig' qilib sanchsin, lekin bari biri Mavlonboy sendan behroq." [3, 6-b.]

Murod Muhammad Do'stning tilni, undagi lisoniy birliklarning ma'no qirralarini chuqur his qilishi, anglashi bir iboraning ikki variantidan turli o'rinlarda tasvirning ichki mazmunidan, tabiiy maromidan kelib chiqib o'ta sezgirlik bilan foydalanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'lumki, tilimizda behurmat qilmoq ma'nosida ishlatiladigan yuziga oyoq qo'ymoq, yuziga oyoq bosmoq, yuziga oyoq tiramoq kabi frazeologik birliklar mavjud. Bu iboralar ma'no darajasi bilan o'zaro farqlanadi, ya'ni yuziga oyoq qo'ymoqqa qaraganda yuziga oyoq bosmoq iborasida, yuziga oyoq bosmoqqa qaraganda esa yuziga oyoq tiramoq iborasida behurmatlik qilish ma'no darajasi kuchli. Yozuvchi bir o'rinda Anzirat kampir haqida "gapirayotgan" roviy nutqida yuziga oyoq bosmoq iborasidan foydalanadi: "Xiyonati yo'q, qing'irligi yo'q, qaytaga Raim oqsoqolni izzat qildi, boshqalarning oldida yuziga oyoq bosib qaytadan er qilmadi, orqavoratdan cholim deb ataydi". [3, 17-b.]. Boshqa bir o'rinda esa yana shu Anzirat haqida gapirayotgan Raim oqsoqol nutqida endi mazkur iboraning yuziga oyoq qo'ymoq variantidan foydalanadi: "– Yo'q, – dedi u sal turib. – Nimasiga afsus qilaman!.. Akalari menga gap qaytarmasa ham bir navi edi, lekin ular yuzimga oyoq qo'ydi, keyin talog'ini aytdim..." [3, 19-b.]. Birinchi misolda yozuvchi Anzirat kampirning ma'naviy-ruhiy qiyofasini tugalroq ochib berish uchun mazkur iboraning behurmatlik qilish ma'no darajasi o'rta bo'lgan variantidan foydalangan. Bu yerda nozik semantik jarayon mavjud. Ya'niki bu variantlarning behurmatlik qilish ma'nosi yuqorida ham ta'kidlaganimizdek, quyidagicha o'sib boradi: yuziga oyoq qo'ymoq → yuziga oyoq bosmoq → yuziga oyoq tiramoq. Lekin bu tasvirda gap



o'ta behurmatlik qilish haqida emas, ayni ma'noning tamomila teskarisi haqida ketmoqda, ya'ni Anzirat kampir "Raim oqsoqolni izzat qildi, boshqalarning oldida yuziga oyoq bosib qaytadan er qilmadi". Mazkur iboralarning bunday inkor ma'nosi – behurmatlik qilmaslik esa quyidagicha darajalanadi: *yuziga oyoq qo'ymaslik* → *yuziga oyoq bosmaslik* → *yuziga oyoq tiramaslik*. Ya'ni bunda behurmat qilmaslik ma'nosi yuziga oyoq qo'ymaslikka qaraganda yuziga oyoq bosmaslikda kuchliroq. Ana shundan kelib chiqib yozuvchi iboraning ayni shu variantidan foydalanadi, iboradan oldin qo'llangan *boshqalarning oldida* birikmasi esa mazkur ma'noni yanada kuchaytiradi, Anzirat kampirning Raim oqsoqolni g'oyatda izzat qilganligini ifodalaydi. Mazkur mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ikkinchi misolda ham ushbu iboraning *yuziga oyoq qo'ymoq* varianti juda o'rinli qo'llangan. Negaki, bu yerda ibora o'zining tasdiq ma'nosida – behurmat qilmoq ma'nosida qo'llangan bo'lib, Raim oqsoqol tilidan keltirilganki, shuning uchun ham uning ma'no darajasi eng kuchsiz variantidan foydalanilgan. Negaki agar mazkur frazeologizmning boshqa variantlaridan biri qo'llanilganida, qahramonning o'ta kamsitilganligi, ta'bir joiz bo'lsa, "yerga urilganligi" o'z tilidan bayon etilgan bo'lardiki, bu g'ururi osmon qadar bo'lgan Raim oqsoqolning tabiatiga, shu asosda asar mantig'iga zid bo'lardi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, adib qissalarida iboralar aksariyat hollarda qahramonlarning ruhiy holatlarini mufassal tasvirlash, ma'lum vaziyatdagi holatini aniq tasvirlash uchun qo'llanadi: "G'aybarov mulladan bezor, *ichini it tirnaydi*, yutinib o'tirgancha, Xizrning qolgan sarguzashtini eslaydi." [3, 6-b.]. / "Raim oqsoqol Mulla Chorining pisandasini tushunmay gul-gul yondi." [3, 172-b.]. / "Shoir o'zining yangi to'plamidan, radio-ga eltgan turkumlari-yu Berlindagi tarjimonlaridan gapirib o'tirdi. Axiyri bo'lmasi, yuzidan pardani

sidirdi: – Pul qolmadi, Toshpo'lat, – dedi. – Tayloqovdayam sariq chaqa yo'q." [3, 136-b.]. / "Mahanboy Soli qassobga xo'rozlanib qarab qo'ydi. Qassob miq etmay o'tirardi. – Murod amakining tishi tugul, jag'i uzilib tushsa, achinmas! – U battar avj qildi. – Shaharga ergashtirib borgani uyaladi." [3, 63-b.].

Qazib olish hajmining pasayishiga nisbatan qarshi kurash maqsadida er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning stavkasini tabaqalashtirishga ham e'tibor bermog' lozim. Bunda bu soliq stavkalariga nisbatan turli koeffitsientlarni qo'llash qo'l kelishi mumkin. Koeffitsientlar esa, o'z navbatida, jahon bozoridagi neft va gaz mahsulotlariga nisbatan baholarning o'zgarishini, shuningdek, aniq bir kondagi zahiralarning ishlanganlik darajasini ham hisobga olishi lozim. Ayrim hollarda esa "nolli" stavkalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunday vaziyatda pasaytiruvchi koeffitsientlar va "nolli" soliq stavkasini qo'llash maqsadida qazib olingan mahsulotni hisobga olish tartibini yanada aniqlashtirish, pasaytiruvchi koeffitsientni hisoblashda hisobga olinishi kerak bo'lgan bir tonna neft tannarxi minimumini oshirish muhim ahamiyatga ega. Biroq, tadqiqotlarimiz natijalarining ko'rsatishicha, barcha yoqilg'i-energetika korxonalarida alohida olingan quduqlar va uchastkalar bo'yicha hisob-kitoblarni yuritish tizimi talab darajasida yo'lga qo'yilmagan.

Mamlakatimizning yoqilg'i-energetika resurslaridan yanada samarali va oqilona foydalanish maqsadida bu jarayonda qazib oluvchi korxonaning yo'l-yo'lakay gazdan haqiqatdagi foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda shunday gazni qazib olganligi uchun er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning "nolli" stavkasini bekor qilish yoki uni yoqib yuborganlik uchun jarimalar joriy qilish, shuningdek, neftni qazib olayotganda texnologik yuqotmalarga nisbatan xuddi shunday stavkani bekor qilish ham muhim rol o'ynashi mumkin.

Yoqilg'i-energetika korxonalarining barqaror rivojlanishi uchun yangi va yanada samaraliroq bo'lgan ob'ektlarni qidirib topish va ularga ishlov berish, shuningdek, yangi texnologiyalarni yaratish va ularni ishlab chiqarishga yanada tezroq joriy etish hisobidan qazib olinayotgan mahsulotlarga sarf qilinayotgan xarajatlarni qisqartirish zarur. Qazib olish hajmlarini ushlab turishning bosh omili qazib olish hajmini saqlab qolish va uning samaradorligini oshirish hisoblanadi. Biroq, yoqilg'i-energetika korxonalarida qazilma konlarini qazishga doir investitsion qaror qabul qilishlari uchun

boshlang'ich debit ostonaviy o'lchamdan yuqori bo'lmog'i lozim. Yangi quduqlar o'rtacha boshlang'ich debitlarining hisob-kitobli ostonaviy darajalar bilan taqqoslanishi shuni ko'rsatmoqdaki, amaldagi soliqqa tortish tizimiga asoslangan qazish iqtisodiyoti rentabellik chegarasida joylashgan bo'lib, u qazish hajmining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu o'rinda yana bir narsani unutmaslik kerak: uglevodorodlar qazib olishning yanada murakkab sharoitlari, yangi transport tizimini qurish, ta'minlashning yangi yo'nalishlariga ega bo'lish juda katta miqdordagi investitsiyalarning amalga oshirilishi taqozo etadi.

Shuni alohida qayd etish joizki, hozirgi soliq rejimiga muvofiq mamlakatimizning yoqilg'i-energetika korxonalarida neft va gazga nisbatan yuqori baholar sharoitida gullab-yashnashadi va aksincha, ularga nisbatan baholar pasayganda esa nochor ahvolga tushib qolishadi. Bizning fikrimizcha, bu erda tizim shunday tarkib topishi kerakki, unda yoqilg'i-energetika korxonalarida, masalan, 1 barrel neftning narxi 25 AQSh dollari yoki 100 AQSh dollari bo'lganda ham o'zlarini bir xil darajada barqaror his etishlari kerak. Bu esa, o'z navbatida, resursiy soliqqa tortishda emas, balki korxonalar daromadlarini soliqqa tortishdagina mumkindir, xolos.

Yana bir muammo: ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimizning ichki va tashqi bozorlarida gazga nisbatan baholar bosqichma-bosqich oshirilib borilmoqda. Biroq, neft va gaz korxonalarini soliqqa tortishning alohida-alohida tahlili neft qazib oluvchi korxonalaridagi soliq yuklamasi gaz qazib oluvchi korxonalaridagi soliq yuklamasiga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatdi. Buning natijasida gaz tarmog'i korxonalarida gazga nisbatan baholarning o'sib borishi, va er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasining o'zgarmaganligi sharoitida tabiiy renta xarakteriga ega bo'lgan qo'shimcha daromadlarga ega bo'lib qolmoqdalar.

Bayon etilganlardan ko'rinmoqdaki, amaldagi er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq differentsial rentani o'zida mujassam etmaydi, uning qazilma konlariga ishlov berish bosqichlari bo'yicha zahiralarning ishlanganlik darajasini quduqlarning turli debitlardagi o'zgarishini hisobga olmaydi. Yoqilg'i-energetika korxonalarida uchun qazilma konlarini o'zlashtirish bosqichida minimum solliqlarning to'lanishi, ular foydasi va ustama foydasiga nisbatan progressiv soliqqa tortishning joriy etilishi ideal soliq tizimi hisoblanishi mumkin. Buning aynan maqsadga muvofiqligini jahon ilg'or tajribasi tasdiqlaydi. Masalan, Shimoliy dengizdagi qazilma konlariga ishlov berishda baholar nisbatan yuqori va zahiralarning miqdori etarli darajada qulay bo'lgan holda bunday soliq tizimi Angliya va Norvegiyada joriy etilgan edi. Natijada ayrim qazilma konlariga ishlov bergan korxonalar o'z daromadlarining 80,0 foizdan ko'proq bo'lgan qismini davlatga bergan edilar.

Bunday g'oyani amalga oshirish uchun uglevodorodlarni qazib olishdan olingan ustama foydadan soliq undirish taklif qilingan bo'lib, unga ko'ra yoqilg'i-energetika korxonalarining to'plangan (jamg'arilgan) daromadlarining xuddi shunday xarajatlariga nisbatiga bog'liq ravishda ular progressiv etti bosqichli stavkalar tizimining "0" dan 60,0 foizgacha bo'lgan oralig'ida daromad solig'ini to'lashlari kerak edi. Bunda to'plangan (jamg'arilgan) daromadlar to'plangan

(jamg'arilgan) xarajatlar bilan tenglashgunga qadar bu korxonalarining daromadlari "nolli" stavkada, to'plangan (jamg'arilgan) daromadlar loyiha bo'yicha umumiy xarajatlardan ikki martadan ko'proq ortganda esa eng yuqori stavkada soliqqa tortilishi lozim edi.

Shu bilan birgalikda, bizning fikrimizcha, soliqlar va soliqqa tortish jarayonlarini yoqilg'i-energetika korxonalarining daromadlariga to'liq bog'lab qo'yish ham maqsadga muvofiq emas. Chunki ular mahsulotlariga nisbatan baholarning pasayib ketishi bunday korxonalarining byudjetga to'lovlarini "nol" darajasigacha olib kelishi mumkinki, bu narsa davlat manfaatlariga javob bermaydi.

Fikrimizcha, bu erda yana bir narsa e'tibordan chetda qolgan ko'rinadi. Gap bu o'rinda mamlakatimizda tabiiy yoki tog' rentasini oqilona undirish mexanizmining hanzu shakllanmaganligi xususida ketmoqda. Yanada aniqroq aytiladigan bo'lsa, bu o'rinda davlat mulkida bo'lgan qazilma konlaridan foydalanlik uchun to'lov nazarda tutilmoqda. Shu munosabat bilan qayd etish joizki, bunday rentaning ikki ko'rinishi mavjud. Differentsial renta I xom-ashyoning yuqori sifatligi, unga ishlov berishning foydali tog'-geologiya sharoitlari va qulay joyda joylashganligi bilan xarakterlanuvchi tabiiy omillar natijasida tegishli qazilma qonlarida mavjud bo'ladi. Bular natijasida olingan qo'shimcha foyda differentsial renta Ini vujudga ketiradi va u qazilma koniga ishlov beruvchi korxonadan tomonidan emas, balki shu qazilma konining egasi tomonidan o'zlashtirilishi kerak. Mulk egasi (davlat) tomonidan qanchalik yaxshi qazilma koni ishlov beruvchiga taqdim etilgan bo'lsa, u shunchalik ko'p (yuqori) bo'lgan to'lov (haq)ga davogar bo'lishi mumkin.

Aksincha, differentsial renta II esa kapitalning qo'shimcha joylashtirilishi (sarflanishi) natijasida vujudga keladi. Shuning uchun ham bu vaziyatda qo'shimcha daromad qazilma konining egasi (davlat) tomonidan emas, balki qo'shimcha xarajat qilgan korxonadan tomonidan o'zlashtirilishi lozim.

Yoqilg'i-energetika tarmog'ida yuqori daromadlarni uglevodorodlarga ishlov beruvchi hamma korxonalar ham olavermaydi. Ularni faqat eng yaxshi qazilma konlariga ega bo'lgan korxonalar qo'lga kiritishi mumkin. Buning natijasida bu boradagi soliqqa tortish tartibi shunga olib keldiki, ayrim yirik yoqilg'i-energetika korxonalari, yuqori daromad olayotgan bo'lishiga qaramasdan, o'z foydalarining, bor-yo'g'i

2,0-3,0 foizini soliq sifatida byudjetga to'lamoqdalar. Bir paytning o'zida, xuddi shunday kichik va o'rta darajadagi korxonalar esa o'z foydalarining 20,0 foizdan 60,0 foiz gacha bo'lgan qismini byudjetga o'tkazmoqdalar. Buning natijasida esa katta miqdordagi loyihalar norentabelli bo'lib qolmoqda.

Shuning uchun ham, bizning fikrimizcha, amaldagi er qaridan foydalanlik uchun soliq differentsial rentani o'zida mujassam etmaydi, quduqlar unumdorligi va qazilma konlari zahiralarning ishlanuvchanligi o'zgariganda uning o'zgarishini hisobga olmaydi. Holbuki, iqtisodiy renta jamiyat (davlat)ning foydasiga undirilishi lozim. Biroq, hozirgi paytda yoqilg'i-energetika korxonalarida amal qiladigan soliq tizimi buni ta'minlashga qodir emas.

Uglevodorodlarni eksport qiluvchi bir necha xorijiy mamlakatlar qonunchilik asoslari va tajribalarining tahlili yoqilg'i-energetika sektorida to'liq davlat mulkchiligi bilan xarakterlanuvchi model nosamarali boshqaruvga, foydaning nazorat qilinmaydigan va maqsadsiz foydalanishiga, tarmoqda inqirozli holatlarning vujudga kelishiga, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etishning to'xtab qolishiga, geologiya-qidiruv ishlari ko'lamining qisqarib ketishiga, qidirib topilgan zahiralarning hajmining kamayigacha olib kelishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Buning natijasida yoqilg'i-energetika sektori chuqur inqiroz holatiga kelib qolishi va undan keladigan valyuta tushumlari keskin pasayib ketishi mumkin. Shuning uchun ham bu borada vujudga keladigan muammolarni hal etishda, bizningcha, davlatning faol roli va bozor mexanizmlarining optimal qo'shilishiga alohida e'tibor bermoq lozim.

Bizning fikrimizcha, yoqilg'i-energetika korxonalarida soliqqa tortishni isloh qilish yangi va ishlov berilmagan qazilma konlariga pul mablag'larining investitsiyalashtirilishini stimullashtirmog'i kerak. Buning yo'llaridan biri bir qator qazilma konlarida eksport poshlinalarini nollashtirish hisoblanishi mumkin. Shuningdek, soliq to'lanmalarini kamaytirish uchun soliq to'lovchilar tomonidan foydalanilayotgan o'rtacha bozor baholari bilan taqqoslaganda pasaytirilgan yoki oshirilgan baholarni aniqlash uchun yoqilg'i-energetika korxonalarining transfert baholari ustidan nazoratni o'rnatishni ham bu boradagi soliq islohotlarini amalga oshirishning boshqa istiqbolli yo'nalishi deb qarasa bo'ladi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Масленников Л.В., Курбанова А.А. Налоговое стимулирование разработки низкорентабельных месторождений на основе зарубежного опыта // Нефть, газ и бизнес. – Москва, 2015. № 1-2. – С. 36-40.
2. Ивонина И.Э., Ахрарова Э.А. Управление финансовыми ресурсами нефтегазодобывающих предприятий НХК «Узбекнефтегаз» и пути его совершенствования // Азербайджанское нефтяное хозяйство – Баку, – 2011 – № 10 С.28-31.
3. Ивонина И.Э. Формирование модели управления устойчивым развитием нефтегазовой промышленности Узбекистана // Узбекский журнал нефти и газа – Ташкент, – 2010 – № 2 С.54-56.
4. Ивонина И.Э. Обеспечение финансовой стабильности – приоритет развития нефтегазовой отрасли // Экономический вестник Узбекистана – Ташкент, 2007 –№ 11-12 С.110-113.
5. Ивонина И.Э. Узбекистан: совершенствование системы взимания налога за пользование недрами // Налоговая политика и практика – Москва, 2013. – № 9 С.42-46.
6. Ивонина И.Э. Совершенствование налогообложения на недра нефтегазодобывающих предприятий // Узбекский журнал нефти и газа – Ташкент, – 2006 – № 4 С.4-8.

## MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARI – HUDUD DAROMAD SALOHİYATINING MUHIM TARKIBIY QISMI SIFATIDA

*Qobulov Xotamjon Abdulkarimovich*

*iqтisod fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent moliya instituti,  
O‘zbekiston, Toshkent*

*Yusupova Gulsoraxon Sobirovna*

*Andijon mashinasozlik instituti “Avtomatika va elektrotexnika” fakulteti  
O‘quv-uslubiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari,  
O‘zbekiston, Andijon*

## ДОХОДЫ МЕСТНОГО БЮДЖЕТА – СОСТАВНАЯ ЧАСТЬ ДОХОДНОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА

*Кабулов Хотамжон Абдукаримович*

*канд. экон. наук, доц. Ташкентского финансового института,  
Узбекистан, г. Ташкент*

*Юсупова Гулсорохон Собировна*

*Андижанский машиностроительный институт, заместитель декана по учебной работе факультета Автоматика и электротехники,  
Узбекистан, г. Андижан*

### ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston Respublikasida davlatning 2020-yildagi samarali byudjet-soliq siyosati vazifalaridan kelib chiqib mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish amaliyotining hozirgi holati, uning muammolari va yangi jihatlari hamda mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish tizimi samaradorligini oshirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan.

### АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены современное состояние, проблемы и новации в действующей практике формирования доходов местных бюджетов в Республике Узбекистан, исходя из задач бюджетно-налоговой политики государства на 2020 год, а также были рассмотрены пути повышения эффективности системы формирования доходов местных бюджетов.

**Tayanch iboralar:** byudjet tizimi bo‘g‘inlari, mahalliy byudjetlar, mahalliy byudjet daromadlari, o‘z (biriktirilgan) daromadlari, tartibga soluvchi daromadlar, transfertlar.

**Ключевые слова:** звенья бюджетной системы, местные бюджеты, доходы местных бюджетов, собственные (прикрепленные) доходы, регулирующие доходы, трансферты.

O‘zbekistonning o‘rta muddatli rivojlanish strategiyasida mahalliy byudjet daromadlari bazasini oshirish, ularning moliyaviy mustaqilligini ta‘minlash, hududlar o‘rtasida raqobat muhitini shakllantirish kabi muhim vazifalar belgilangan bo‘lib, mazkur vazifalarni ta‘minlashda rivojlangan davlatlar ilg‘or tajribasini o‘rganish, ularning ijobiy natijalarini respublikamizda qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Hududlarni rivojlantirish borasida fikr yurita turib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev shunday deydi: “hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni moliyalashtirish uchun mahalliy byudjetlarning mablag‘lari etarli emas” [1].

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mahalliy byudjet daromadlari bazasini oshirish, ularning moliyaviy mustaqilligini ta‘minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, hududlar, tuman hamda shaharlarni kompleks va mutanosib holda

ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiya muhitini yaxshilash orqali hududlarga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish kabi ustuvor vazifalar belgilangan bo‘lib, mazkur vazifalarni ta‘minlashda rivojlangan davlatlar ilg‘or tajribasini o‘rganish, ularning ijobiy natijalarini respublikada qo‘llash muhim masala hisoblanadi [2].

Mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash va nomarkazlashtirish asosida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirish, byudjetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish, yangi ish joylari yaratish hamda aholi bandligini ta‘minlash, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hisobiga soliq salohiyatini kengaytirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularning mas‘uliyatini oshirishni ta‘minlash asosiy maqsadimizdir [3].

Bugungi kunda maxsus iqtisodiy adabiyotlarda va davriy matbuotda mahalliy byudjetlar daromadlari

tizimi masalasida turlicha fikrlar bildirib kelinmoqda (1-jadval).

1 jadval.

### Iqtisodiy adabiyotlarda mahalliy byudjetlar daromadlari tizimi mazmunining talqini

t/r	Mahalliy byudjet daromadlari zarurligining talqini	Mualliflar
<i>Xorijlik mualliflar</i>		
1.	Mahalliy byudjetlar daromadlari bazasining asosini mahalliy soliq va yig'img'lar va ular tarkibida mahalliy hokimiyatlar tomonidan o'rnatiladigan, hisoblanadigan, undiriladigan ko'chmas mulk bo'yicha soliqlardan tushumlar tashkil etadi va ular daromadlarning o'rta muddatli istiqbolini belgilashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.	Tommaso Olivero, Annaliza Skognamiglo [4]
2.	Mahalliy byudjetlar qonunda belgilangan vakolatlar doirasida o'z daromad bazalariga, ya'ni xarajatlarga oid majburiyatlar ijrosi uchun moliyaviy ta'minotga ega bo'ladilar. Bu jarayonda mahalliy hokimiyat organlari pragmatik yondoshuvni yoqlab chiqmoqdalar va bu bilan turli tejamkorlik bosimi va cheklovlar doirasida mahalliy ehtiyojlarni qondirish siyosati kamchiliklarini ta'kidlashmoqda.	Aldag A.M., Kim Yu., Varner M.E. [5]
<i>Mahalliy mualliflar</i>		
3.	Umumdavlat pul mablag'larining byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlashning asosini, mahalliy byudjetlar mustaqilligi, ularning davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi, ular daromadlarini hududiy manbalar hisobiga shakllanishi tamoyillari tashkil etadi. Ushbu tamoyillardan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlarning daromadlari o'z daromadlari va boshqariladigan manbalar hisobidagi daromadlardan shakllanadi.	Vaxobov A.V., Kasimova G.A., Jamolov X.N. [6]
4.	Mahalliy soliqlar mahalliy byudjetlar tarkibida birinchi moliyaviy manba sifatida qaralsa ham, bu soliqlar mahalliy byudjetga birlashtirilgan xarajatlarini moliyalashda yetarli moliyaviy manba bo'la olmaydi. Byudjet parametrlarini belgilash vaqtida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar belgilanadi. Bu jarayon har yili byudjet parametrlarini tasdiqlash paytida ishlab chiqiladi va Prezident qaroriga muvofiq belgilanadi va tasdiqlanadi.	Malikov T. [7]

Umuman, mualliflarning chiqishlarida "mahalliy byudjetlar daromadlari shakllanishi manbalari" tushunchasi mamlakat byudjet-soliq tizimining shakllanishi davridan buyon ishlatilib kelinayotgan bo'lsada, biroq hozirga qadar uning mazmunini yoritishning munozaraliligi saqlanib qolmoqda va mazkur tushuncha ta'rif qonun hujjatlari bilan mustahkamlanmaganki, bu narsa mavjud yondoshuvlar va ularning mazmunlari tavsifini aniqlashtirishni talab etadi.

Ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlardan kelib chiqib, ta'kidlash lozimki, **mahalliy byudjetlar daromadlari** qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga yo'naltiriladigan mahalliy soliqlar, yig'img'lar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlardan, qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan umumdavlat soliqlari, yig'img'lar, bojlari va boshqa majburiy to'lovlardan, davlat mulki obyektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlardan, qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'laridan, yuqori byudjetlardan beriladigan byudjet transfertlaridan, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlaridan hamda boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.[8]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrda PF-5283-sonli "Mahalliy davlat

hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni mahalliy byudjetlar darajasida soliq-byudjet siyosatining ustuvor vazifalarini belgilab berdi. Jumladan:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning aniq turlarini ularga birlashtirib qo'yish orqali mahalliy byudjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash;

- viloyatlar, shahar va tuman byudjetlarini subvensiyadan chiqarish, ularning yuqori turuvchi byudjetlar ajratmalariga bo'lgan qaramligini bosqichma-bosqich qisqartirish, buning asosida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal etishda mahalliy davlat hokimiyati organlari erkinligi va mas'uliyatini oshirish;

- mahalliy byudjetlarning daromadlarini oshirish uchun tizimli asosda qo'shimcha rezervlarni aniqlab borish;

- mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini mustahkamlash hamda xarajatlarining tasdiqlangan parametrlarini o'z vaqtida, maqsadli moliyalashtirish, ijtimoiy soha obyektlari va infratuzilmani yanada rivojlantirish va tegishli darajada saqlab turishni ta'minlash ustidan mahalliy davlat hokimiyati organlari, moliya va soliq organlarining javobgarligini kuchaytirish (2-jadval).

2 jadval.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrda PF-5283-sonli Farmoni ijrosi natijalari sifatida mahalliy byudjetlar daromadlari bazasini mustahkamlash, byudjetga qo'shimcha daromadlar manbalarini yaratish bo'yicha ma'lumot [9]**

№	Yo'nalishlar bo'yicha	1.01.2019-yil holatiga	
		Korxonalar soni	Qo'shimcha soliq bazasi (mln. so'm)
1.	Sanoat ishlab chiqarish sohasida yangi tashkil etilgan subyektlar bo'yicha	8 522	15 857,7
2.	Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar bo'yicha	28 523	2 205,1
3.	Yangi tashkil etilgan xizmat ko'rsatish, servis korxonalar bo'yicha	42 146	1 820,7
4.	Mavjud korxonalarni sog'lomlashtirish, modernizatsiya qilish, qayta qurollantirish bo'yicha	13 856	3 197,0
5.	Istiqbolsiz ishlab chiqarish korxonalarini yangi mulk egalari sotish orqali sog'lomlashtirish hisobiga	1 341	613,8
6.	Soliqlarni markazlashgan holda bosh korxonalar tomonidan to'lanishini joylarga to'lash tartibi bo'yicha	3 387	1 390,9
7.	Soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlar muddati tugashi hisobiga	25 976	1 185,2
8.	Soliqlarni yig'uvchanligini oshirish bo'yicha	1 804	1 162,0
	<b>Jami</b>	<b>125 555</b>	<b>27432,4</b>

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlash bo'yicha yuqoridagi chora-tadbirlar natijasida 2019-yil 1-yanvar holatiga korxonalar soni 125555 taga etib, byudjetga qo'shimcha tushumlar soni 27432,4 mln. so'mga o'sishi kuzatildi.

Harakatlar strategiyasi ko'lamida islohotlarni jadallashtirish sharoitida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti birinchi marta, Halqaro valyuta jamg'armasi hamda boshqa xalqaro moliyaviy institutlar

ekspertlari bilan birgalikda jahon standartlariga mos ravishda ishlab chiqilib, Byudjet parametrlari Qonun shaklida qabul qilindi. Ilk bor, "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan respublika byudjeti xarajatlari vazirlik va idoralar kesimida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan, mahalliy byudjetlar xarajatlari esa, xalq deputatlari mahalliy kengashlari tomonidan tasdiqlanishi belgilab qo'yildi.

3 jadval.

**O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlarining 2020-yildagi daromadlari, xarajatlari va respublika byudjetidan olinayotgan moliyaviy transfertlari haqida ma'lumot [10]**

T/r	Hududlar nomi	Daromadlar	Xarajatlar	Transfertlar miqdori	Daromad va xarajatlar balansi, %da
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 833,3	2 833,3	-	100
2.	Andijon viloyati	2 187,4	2 803,6	616,2	78,0
3.	Buxoro viloyati	2 142,3	2 142,3	-	100
4.	Jizzax viloyati	1 050,8	1 499,0	448,2	70,1
5.	Qashqadaryo viloyati	2 935,7	3 693,8	758,1	79,5
6.	Navoiy viloyati	1 353,6	1 353,6	-	100
7.	Namangan viloyati	2 016,5	2 994,2	977,7	67,3
8.	Samarqand viloyati	2 714,8	3 036,6	321,8	89,4
9.	Surxondaryo viloyati	1 741,6	2 580,7	839,1	67,5
10.	Sirdaryo viloyati	751,1	1 095,0	343,9	68,9
11.	Toshkent viloyati	2 582,9	2 582,9	-	100
12.	Farg'ona viloyati	3 005,6	3 357,5	351,9	89,5
13.	Xorazm viloyati	1 402,2	1 859,2	457,0	75,4
14.	Toshkent shahri	3 556,1	3 556,1	-	100
	<b>Jami:</b>	<b>30 273,9</b>	<b>35 387,8</b>	<b>5 113,9</b>	<b>85,5</b>

3-javdal ma'lumotlaridan ko'rinishicha, 2020-moliya yilida mamlakatdagi 14 ta mahalliy byudjetdan bor-yo'g'i 5 tasi, ya'ni 35,7 foizi o'z daromadlari bilan o'z xarajatlarini 100 foiz qoplay olmoqda. Qolgan 9 ta hudud esa, respublika byudjetidan moliyaviy ko'mak, ya'ni byudjetlararo transfert mablag'lari olishga majbur bo'lmoqda. Bundan tashqari, mazkur moliyaviy

ko'makning aslida mahalliy byudjet taqchilligini qoplashga qaratilayotganligi, uni umumiy tarzda ifodalashga urinish – "davlat byudjeti shaffofligini ta'minlash", "mahalliy byudjetlarni tartibga solish va boshqarishdagi davlat tadbirlarining aniq va manzilli bo'lishligi", "mahalliy byudjetlar manfaatdorligini rag'batlantirish samarali vositalarini hayotga tadbir

etish” kabi zaruriyatlarning ijrosiga salbiy ta’sir ko’rsatishi tabiiydir.

Xulosa o’rnida aytishimiz mumkinki:

1. Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida byudjetlararo transfertlar ulushining mavjudligi va uning nisbatan daromadlar tarkibidagi salmog’ining yuqoriligi ularning yuqori byudjetlarga moliyaviy qaramligi, o’ziga xos ravishdagi byudjet xarajatlarini ta’minlash bilan bog’liq joriy xarajatlarni moliyalashtirishda “likvidlilik” muammolarini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham yaqin va o’rta istiqbolda mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida byudjetlararo transfertlar ulushini kamaytirish bo’yicha aniq “Yo’l xaritalari”ga ega bo’lish lozim. Shu bilan birga, ular tarkibi aniq manzilliligi ta’minlanishi, o’z hisobidan imkoniyatlarning yaxshilanishi istiqbollari aniqlashtirilishi lozim.

2. O’rta muddatli istiqboda mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlashda umumiy iqtisodiy

omillar, xususan, sanoat ishlab chiqarish sohasida yangi tashkil etilgan subyektlar va mavjud korxonalarni sog’lomlashtirish, modernizatsiya qilish, qayta qurollantirish hisobiga qo’shimcha soliq bazasini ko’paytirish imkoniyatlari yuqoridir.

3. Mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlashda moliyaviy omillar qatorida soliqlarni markazlashgan holda bosh korxonalar tomonidan joylarga to’lash tartibini joriy etish va soliqlarning yig’iluvchanligini oshirish hisobiga ham mahalliy byudjetlarga tushumlar miqdorini yuqori darajasini ta’minlash imkoniyatlari mavjuddir.

Umuman, mahalliy byudjetlar daromad bazasini umumiy iqtisodiy va moliyaviy omillar kontekstida mustahkamlash bo’yicha islohotlarni chuqurlashtirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining faolligini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

#### Adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza. 2017-yil 15-yanvar. / <http://old.president.uz/uz/news/5451/>
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-son Farmoni / O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017-y., 6-son, 70-modda
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrda “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to’liqligini ta’minlash bo’yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-5283 –sonli Farmoni / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.12.2017-y., 06/17/5283/0407-son
4. Tommaso OLiviero, Annalisa Scognamiglio. Property tax and property values: Evidence from the 2012 Italian Tax Reform European Economic Review. <http://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0014292119301084>.
5. Aldag, A.M., Kim, Y., Warner, M.E. Austerity urbanism or pragmatic municipalism? Local government responses to fiscal stress in New York State. [www.scopus.com/results/results.uri?editSaveSearch=&sort=plf-f&src=s&st1=+local+taxes+and+fees&nlo](http://www.scopus.com/results/results.uri?editSaveSearch=&sort=plf-f&src=s&st1=+local+taxes+and+fees&nlo).
6. Vahobov A., Qasimova G., Jamolov X. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. //O’quv qo’llanma. -T.: Iqtisod-moliya. 2005.
7. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: Adliya. 2002.
8. O’zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.03.2020-y., 03/20/612/0326-son
9. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari.
10. O’zbekiston Respublikasining “2020-yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida”gi qonuni / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.12.2019 y., 03/19/589/4126-son

## ХАВФ ДАРАЖАСИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ

*Хасанова Хамида Хайдаралиевна**Ислом Каримов номидаги ТДТУ Олмалиқ филиали катта ўқитувчиси,  
Ўзбекистон, Тошкент вилояти,**Xasanova Xamida Haydarlievna**Almalyk branch of Tashkent state technical University named after Islam Karimov,  
Uzbekistan, Tashkent region*

## АННОТАЦИЯ

Бозор шароитларининг ўзгариши ва иқтисодиётнинг либераллашуви муносабат билан кутилган якуний натижани олишда ноаниқлик мавжуд ва шунинг учун хавф пайдо бўлади. Шундай қилиб, замонавий шароитлар хавф, уни таҳлил қилиш ва хавфни баҳолаш усулларини ўрганиш зарурлигига олиб келади. Хатарларни муваффақиятли бошқариш учун уларни аниқлаш, таҳлил қилиш ва прогноз қилиш керак. Мақолада хўжалик субъектларининг хавф тушунчаси, корхоналарининг таваккалчиликларини баҳолаш усуллари келтирилган.

## ABSTRACT

With regard to the change in market conditions and the liberalization of the economy, there is uncertainty in obtaining the expected final result and hence the risk arises. Thus, modern conditions lead to the need to study the methods of risk, its analysis and risk assessment. To successfully manage risks, they need to be identified, analyzed and forecasted. The article presents the concept of risk of economic entities, methods for assessing the risks of their enterprises.

**Калит сўзлар:** хавф, хатарлар; иқтисодий фаолият самарадорлиги; хавфларни баҳолаш, аналитик усул, статистик усул, эксперт баҳолаш усули.

**Keywords:** risk, risks; effectiveness of economic activity; risk assessment, analyticusul, statistical method, expert assessment method.

Иқтисодиётни либераллаштириш шароитида техник ва ишлаб чиқариш хатарларини минималлаштириш хўжалик юритувчи субъект учун устувор ҳисобланади. Шу билан бирга, ушбу хатарлар суғурта фирмаларининг операцион таваккалчиликларининг асосини ташкил этади, хўжалик юритувчи субъект ушбу хавфларни суғурталовчиларга алмаштириш орқали хавфларни бартараф этишга ҳаракат қилмоқда.

Хавфни минималлаштиришнинг усули – бу хавфнинг бир қисмини (айниқса молиявий) бошқа корхона ва ташкилотларга, масалан венчур корхоналарга ўтказишдир. Хавфни камайтириш йўллари ўз-ўзини суғурталашни ўз ичига олади, бу табиий ва пул суғурта фондларини тўғридан-тўғри корхоналарда, айнақса, фаолияти турли хатарларга дучор бўлганлар учун ташкил этишни назарда тутаяди [1].

Одатда, хўжалик юритувчи субъектлар фаолият кўрсатиш жараёни давомида асосан кўплаб турли ташкилотлар, жумладан, молиявий ва молиявий бўлмаган гармоқлар билан ўзаро таъсир қилади. Бу муносабатлар, ўз навбатида, умумий хавф тизимида хўжалик юритувчи субъектнинг хавф-хатарларининг муҳим ролини таъкидлайди. Бизнинг фикримизча, хўжалик юритувчи субъектнинг таваккалчиликларини ўрганиш жараёнида унинг фаолиятининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиш ва албатта, унинг хўжалик юритувчи субъектнинг бизнес ҳамкорларининг фаолияти билан ўзаро боғлиқлигини ҳисобга олиш зарур. Ушбу муаммони ҳал қилишнинг натижасида хўжалик юритувчи субъектнинг таваккалчиликлари бошқа функцияларнинг хавф-хатарлари билан кучли боғлиқлигини таъкидлашга имкон беради ва

хавфларнинг умумий сониди алоҳида ўрин тутаяди. Одатда, замонавий шароитда кредит хавфи хўжалик юритувчи субъектнинг ишлашига сезиларли таъсир кўрсатмайди. Буларнинг барчаси биржа бозорининг етарли даражада ривожланмаганлиги, яъни кредит хавфларининг йўқлиги ва хўжалик юритувчи субъектларнинг кредит қобилиятининг пастлиги билан боғлиқ.

Бу эса, хавфни аниқлаш жараёнининг мақсади контекстида аниқланган ҳар бир мақсадга эришиш учун таъсир қилиши мумкин бўлган хавф ва ходисалар манбаларининг тўлиқ рўйхатини аниқлашдан иборат деган ҳулосага келиш имконини беради. Хатарни аниқлаш учун биринчи қадам хавфни аниқлашдир. Хавфни аниқлаш корхона, бозор, конунчилик, ижтимоий маданият ва сиёсий муҳит ҳақида тўлиқ маълумотга эга бўлишни назарда тутадиган номаълум корхонанинг таъсирини аниқлаш жараёнидир [2].

Таъкидлаш жоизки, бугунги кунда хўжалик юритувчи субъектнинг кўпгина хатарлари кредит институтларининг кредит таваккалчилигининг асосини ташкил этади. Хўжалик юритувчи субъектнинг хатарлари қанчалик юқори бўлса, кредит муассасалари ўз хавфи учун юқори нархни белгилайдилар. Маълумки, бизнеснинг ўзига хос хусусияти туфайли хўжалик юритувчи субъектнинг фаолияти турли хатарларга дуч келади. Шу сабабли амалда, хавф даражасини баҳолаш ва унинг қийматини аниқлашни талаб қилади.

**Хавф даражаси** – бу йўқотишлар юзага келиш эҳтимоли, шунингдек, ундан мумкин бўлган зарар миқдоридир.

Хатарларни аниқлаш усулларини ўрганиш бюджет тақчиллиги ёки вақт етишмаслиги билан



фойдаланишни осонлаштирадиган усулларни таъкидлаш имконини берди. Хатарларни аниқлаш усулларини мавжуд таснифлашнинг муҳим камчиликлари, улар қайси усул энг самарали тарзда маълум бир хавфни аниқлаётганини акс эттирмайди. Назарий материалларни ўрганиш натижаларига кўра ташки омилар бўйича тўртта асосий хавф гуруҳлари гуруҳланган:

- молиявий хавфлар (фоиз ставкаси, валюта курси, кредит);
- стратегик хавфлар (ракобат, истемол бозоридаги ўзгаришлар);
- операцион хавфлар (қонунчилик, директорлар кенгаши таркиби);
- хавфлар (шартномалар; табиий хавф-хатарлар; етказиб берувчилар; атроф-муҳит).

**Хавфни баҳолаш** – кўшимча тадбиркорлик даромади ёки юзага келадиган хавфли вазиятдан келиб чиқадиган зарарнинг маълум бир миқдорини олиш ва хавфни олдини олиш бўйича ўз вақтида чоралар кўриш имкониятини тахмин қилиш имконини берадиган аналитик чора-тадбирлар мажмуидир.

Ҳақиқатда хатарлар қуйидагича бўлиши мумкин:

- мақбул хатарлар, яъни режалаштирилган ишни йўлга қўйишда даромаднинг тўлиқ йўқолиши хавфи мавжуд;
- муҳим (критик) хатарлар - яъни, нафақат даромаднинг, балки тушумнинг умуман бўлмаслиги, бунинг натижасида хўжалик юритувчи субъектнинг маблағлари ҳисобидан зарарлар қопланиши мумкин;
- ҳалокатли (катастрофик) хатарлар –яъни, капитал, мол-мулкда катта йўқотишлар ҳамда корхонанинг банкротлиги бўлиши мумкин.Ҳақиқатда хатарлар қуйидагича бўлиши мумкин:

Хатарларни баҳолаш усулларини қиёсий таҳлил қилиш иккита ёндашувни ажратиб кўрсатиш имконини берди: сифатли ва миқдорий.

Хатарларни ўрганишда **сифатли ёндашувнинг** асосий ўзига хос хусусияти шундаки, лойиҳа таваккалчилигини аниқлаш биринчи бўлиб амалга оширилади, кейин эса хавф-хатарнинг оқибатларини баҳолаш ва уларга қарши курашиш бўйича ишлаб чиқилган чора-тадбирларни ўрганишдир. Сифатли таҳлил фаолиятини режалаштириш босқичида амалга оширилиши лозим.

Шуни таъкидлаш керакки, амалда **миқдорий таҳлил** – молиявий хавфнинг турли хил турлари ва молиявий таваккалчиликларнинг пул йўқотишининг ўзига хос ҳажмини аниқлашдир.

Турли хил хавф-хатарлардан зарар миқдорини аниқлаш учун сабаблар, хавф манбалари ва мумкин бўлган оқибатларнинг катталигини аниқлайдиган таҳлили бу миқдорий таҳлилдир.

Баъзан сифатли ва миқдорий тадқиқотлар турли хил мажозий мезонларнинг таъсирини баҳолаш асосида амалга оширилади: уларнинг ушбу хўжалик юритувчи субъектнинг фаолият юритишига ва унинг пул муомаласига таъсири аниқ баҳоланади. Ушбу тадқиқот усули миқдорий тадқиқотлар нуктаи

назаридан жуда қийин, бироқ айтилган сифатли тадқиқотлар билан биргаликда шубҳасиз ўз натижаларини беради. Шунинг учун молиявий хавфни миқдорий ўрганиш усулларини таснифлашга алоҳида эътибор берилиши керак, чунки уларнинг кўпчилиги ва уларни тўғри қўллаш учун маҳорат талаб этилади.

Аслида, хавф ифодаси, шунингдек, моддий ёки миқдорий жиҳатдан мумкин бўлган зарарлар миқдори билан ҳам аниқланиши мумкин.

Нисбий нуктаи назардан, хавф, хўжалик юритувчи субъектнинг мулкий ҳолатини ёки ушбу турдаги тадбиркорлик фаолияти учун ресурсларнинг умумий харажатларини ёки қўрилган даромаднинг олиш қулайроқ бўлган зарар даражаси сифатида белгиланади.

Унда йўқотишлар, қутилаётган даражалар билан солиштирилганда даромадларнинг камайиши, тушумнинг тасодифий оғиши ҳисобланади.

Тадбиркорлик зарарлари биринчи навбатда тадбиркорлик даромадларининг тасодифий пасайиши ҳисобланади. Айнан шундай зарарлар хавф даражасини ифодалайди. Шунинг учун хавфни ўрганиш биринчи навбатда зарарларни ўрганиш билан боғлиқ.

Мумкин бўлган зарарларнинг катталигига қараб, уларни уч гуруҳга бўлиш мақсадга мувофиқдир:

- ҳисобланган даромаддан ошмайдиган зарарлар қабул қилиниши мумкин бўлган зарарлар деб аташ мумкин;
- ҳисобланган даромаддан юқори бўлган зарарлар муҳим (критик) тоифага киради - бундай зарарлар хўжалик юритувчи субъектнинг чўнтагидан қопланиши керак;
- бундан ҳам хавфли, ҳалокатли (катастрофик) хавф, бу ерда тадбиркор ўзининг барча мол-мулкидан юқори зарар кўриши мумкин.

Демак, бу хавф мумкин бўлган зарарлар, йўқотишлар билан ўлчанади, бу турдаги йўқотишлар тасодифий хусусиятларини ҳисобга олиш керак. Ҳодисанинг бошланиши хавфи объектив усул ва субъектив усул билан аниқланиши мумкин.

Шуни таъкидлаш керакки, **объектив усул**, асосан, ушбу воқеа содир бўлган частотани талаб қилиш асосида воқеа юзага келиши эҳтимолини аниқлаш учун ишлатилади. **Субъектив усул** кўп қиррали тахминларга асосланган субъектив мезонларга асосланган. Ушбу тахминларга баҳолаш ходимининг шахсий амалиёти, рейтинг бўйича экспертнинг баҳоланиши, шунингдек, маслаҳатчи аудиторнинг фикри ва бошқалар.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, молиявий таваккалчиликларни баҳолаш асосида хўжалик юритувчи субъектнинг муайян зарар миқдори ва уларнинг пайдо бўлиш хавфи ўртасидаги боғлиқликни топиш мумкин. Ушбу ўзаро боғлиқлик, муайян даражадаги зарарнинг юзага келиш эҳтимоли билан боғлиқ.

Дарҳақиқат, хатарларни аниқлашда қуйидаги усуллар: статистик; харажатларнинг хилма-хиллигини ўрганиш; эксперт баҳолаш усули; аналитик усул; аналоглар усули. Ушбу усуллар

орасида, айниқса, улардан учтасини ажратиш керак: статистик усул, аналитик усул, эксперт баҳолаш усули. Ушбу усуллар орасида, айниқса, улардан учтасини ажратиш керак: эксперт баҳолаш усули, статистик усул, аналитик усул.

**Статистик усул** асосида, бу ёки шунга ўхшаш ишлаб чиқаришда содир бўлган зарарлар ва даромадлар статистикаси ўрганилиб, маълум бир иқтисодий даромадни олиш даражаси ва частотаси белгиланади, келажак учун кўпроқ прогноз тузилади.

Харажатларнинг хилма-хиллигини ўрганиш корхонанинг молиявий барқарорлик кўрсаткичларини ҳисобга олган ҳолда потенциал хавф зоналарини аниқлашга қаратилган. Бу ҳолда, фақат иқтисодий тадқиқотлар, асосий хўжалик юритувчи субъектнинг вазифалари ва унинг контрагентлари (банк ташкилотлари, инвестиция фонди, мижоз-хўжалик юритувчи субъект, эмитент-хўжалик юритувчи субъект, инвестор, харидор, сотувчи ва ҳоказо) функцияларининг стандарт усулларини бажариш мумкин. Амалда **эксперт баҳолаш усули** кўпинча менежерлар ва ходимларнинг фикрларини қайта ишлаш усули билан амалга оширилади. Шу билан

бирга, кўрсатилган усул турли даражадаги зарарнинг турли соҳалари мутахассислари томонидан амалга оширилган баҳоларни тўплаш ва аниқлашни ўз ичига олади. Барча баҳолаш маълумотлари молиявий хавфнинг барча усулларини, шунингдек, статистик маълумотларни ҳисобга олади. Шунинг эса тутиш керакки, хавфхатарни қуришнинг **аналитик усули** янада мураккаблашади, чунки унинг асосий таркибий қисмлари фақат айрим ходимларга тақдим этилади. Айни пайтда ҳар бир нарса аналитик усулнинг пастки кўриниши-моделнинг сезгирлигини ўрганиш учун ишлатилади.

Хулоса қилиб шунини айтиш мумкинки, хатарларни таҳлил қилиш ва баҳолашнинг услубий тавсиялари ишлаб чиқариш корхоналарини барқарорлаштириш ва ривожлантириш муаммоларини ҳал этишга қаратилган самарали хавфни олдини олиш механизмини яратишга имкон беради, ишлаб чиқаришни бошқаришда қарор қабул қилиш ва амалга ошириш жараёнида восита сифатида ишлатилиши мақсадга мувофиқдир.

#### Адабиётлар рўйхати:

1. А. М. Мухамедьяров. Инновационный менеджмент: Учеб. пособие. – 2-е изд.: ИНФРА-М; Москва; 2008.
2. Стандарты управления рисками /Федерация европейских ассоциаций риск-менеджеров. - Русское общество управления рисками: AIRMIC, ALARM, IRM: 2002, translationcopyright FERMA, 2003
3. Иванова Н. Е. Совершенствование методики оценки рисков малого и среднего бизнеса моногородов / Н. Е. Иванова, А. А. Сальникова // Актуальные проблемы современной науки, техники и образования. - 2015. - Т. 2, № 1. - С. 227-230.
4. Буянов В.П. Анализ рисков в деятельности предприятия / В.П. Буянов / Вопросы экономики. 2004. № 8. С. 128-134.
5. Фомичев А.Н.Риск -менеджмент. Учебник. / А. Н. Фомичев. -Москва: Дашков и К, 2008. -376 с.

*ДЛЯ ЗАМЕТОК*

*ДЛЯ ЗАМЕТОК*

# «ИНТЕРНАУКА»

*Научный журнал*

№18(147)

Май 2020

Часть 3

В авторской редакции

Мнение авторов может не совпадать с позицией редакции

Издательство «Интернаука»  
125424, Москва, Волоколамское шоссе, д. 108, цокольный этаж,  
помещение VIII, комн. 4, офис 33  
E-mail: [mail@internauka.org](mailto:mail@internauka.org)

Отпечатано в полном соответствии с качеством предоставленного  
оригинал-макета в типографии «Allprint»  
630004, г. Новосибирск, Вокзальная магистраль, 3

16+



Свидетельство о регистрации СМИ:  
ЭЛ № ФС77-66291 от 01 июля 2016 г.